

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

“UMUMIY TARIX” KAFEDRASI

5141600 - “Tarix” ta'lim yo'nalishi

QURBONOV HAMIDning

“MIRZO ULUG'BEKNING “TO'RT ULUS TARIXI”
ASARI TARIXIY MANBA”
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots.S.G'iyosov

Navoiy 2011

Mavzu: Mirzo Ulug`bekning “To`rt ulus tarixi” asari tarixiy manba

Reja:

Kirish.

I-bob. XV asrda Movarounnahrda madaniy hayotning yuksalishiga ta'sir etgan omillar va tarixiy shart-sharoit.

- 1.1. Mirzo Ulug`bekning hokimiyatga kelishi va boshqaruv usuli.
- 1.2. Mirzo Ulug`bek davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.

II-bob. Mirzo Ulug`bekning ilmiy maktabi.

- 2.1. Mirzo Ulug`bekning qomusiy olim sifatida ilm-fan rivojiga qo'shgan bebaho hissasi.
- 2.2. Ulug`bekning “To`rt ulus tarixi” asari tarixiy manba sifatida.
- 2.3. Ulug`bek davri madaniyat tarixshunosligi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mavzuning dolbzarvligi: Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug`bekning o`rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo`ymaydi. Taqdir bu ulug` zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo`lishdek o`ta mas`uliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulug`bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo`lida ulkan shijoat va matonat ko`rsatdi. Bu benazir alloma o`zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ushbu jadvalda zikr etilgan ilmiy ma`lumotlarning naqadar aniq va to`g`ri ekanini bugungi eng zamonaviy asboblardan ham tasdiklaydi. Ulug`bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma`naviyatining poydevoriga qo`yilgan tamal toshlaridan biri bo`lib, yurti-mizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko`rsatadi. «Ziji jadidi Ko`ragoniy» deb nomlangan Ulug`bek astronomik jadvali o`rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani fikrimizning yaqqol isbotidir. Bu haqda so`z yuritar ekanmiz, beixtiyor 1996 yili Parijda YUNESKOning o`sha paytdagi Bosh kotibi Federiko Mayor janoblari bilan bo`lgan bir suhbat yodimga tushadi. O`shanda janob Mayor Ulug`bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko`rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. Shunda men unga javoban, yo`q, janob Federiko Mayor, Ulug`bek xato qilgan bo`lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo`lishi mumkin, degan edim. Garchi bu gap do`stona lutf tariqasida aytilgan bo`lsa-da, o`ylaymanki, uning zahirida chuqur haqiqat mujassam.¹

¹ Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent “Ma`naviyat” 2008.

Asli ismi Muhammad Taragʻay Mirzo Ulugʻbek (1394-1449) Amir Temurning Eron va yaqin Sharqqa qilgan «besh yillik» yurishi paytida Ajam Iroqining Sultoniya shahrida 1394 yilda dunyoga keladi. Amir Temur sulolasiga mansub ulugʻ zot, oʻlkan davlat arbobi va buyuk dahodir. Amir Temur nabirasi Ulugʻbekda eng avvalo insonparvarlik, adolat va dilovarlik fazilatlari boʻlgan. Zotan, insonparvargina sahiy va adolatli boʻlishi mumkin. Sohibqiron fikricha, saltanatga daʻvogarlik qilgan har bir kishi saltanat shaʼni-martabasiga loyiq ish tutishi va unga muvofiq boʻlishi zarur. Uzoqni koʻrolmagan hukmdor yaqinlari balolariga giriftor boʻladi. Ammo yaqinni koʻrib ish tutgan hukmdor ham xato qiladi.

Amir Temur nabirasiga har doim toleingda bitilgan boʻlsa hukmdor boʻlursan, ammo kim boʻlmagin musulmon boʻl, hech kimsaga haqsizlik qilma, sababsiz ranju ozor yetkazma, toʻgʻrilik toʻnini kiygin. Faqirlar va ojizlarga har qanday sharoitda muruvvat koʻrsat, - deb taʼlim bergan.

Ulugʻbek sohibqiron bobosining qoʻl ostingdagilarning qalbi va koʻnglidan faqat yaxshilik bilan joy top, aks holda quvvutsiz qolursan va unutilarsan, degan yoʻl yoʻrigʻini yoshlik chogʻidan botinan va ruhan oʻzlashtirib, butun hayoti davomida ularga qatʼiy amal qilgan. Bularning hammasi Mirzo Ulugʻbekning ilmiy kamoloti va siyosiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

U temuriylar xonadonining suyukli farzandi sifatida yoshligidanoq saroy muhitida saroy ayonlari, olimlar, shoirlar taʼsiri, taʼlim va tarbiyasida ulgʻayadi. Uning tarbiyasi shaxsan bobosi sohibqiron Amir Temur tomonidan nazorat qilinib, buvisi Saroymulkxonim enagaligida olib boriladi. Mirzo Ulugʻbek saroydagi eng yirik olimlar: Mavlono Ahmad, Qozizoda Rumiy va boshqalardan saboq oladi. U qadimgi yunon mutaffakirlari va IX-XII asrlarda yetishib chiqqan yaqin va Oʻrta Sharq hamda Markaziy Osiyo olimlarining asarlarini qunt bilan oʻrganadi. Mirzo Ulugʻbek, ayniqsa, tabiatshunoslik fanlarini matematika, geometriya, geografiya, kimyo, astronomiyaga oid bilimlarni chuqur egallaydi. Natijada, yigirma yoshlarida oʻz davrining yirik olimlaridan biri boʻlib yetishadi. MirzoUlugʻbek

1411 yilda Movaraunnahr va Turkistonning hokimi qilib tayinlanadi. U hokimlik qilgan davrlarda, mamlakat tashqi va ichki mudofaasini mustahkamlash bilan bir qatorda, Samarqand, G'ijduvon, Buxoro shaharlarida ko'plab madrasalar, masjidlar, turli ilm o'choqlari qurdirib, ilm-fanning rivojlanishiga katta e'tibor beradi. 1425-1928 yillarda Mirzo Ulug`bek Samarqandda, keyinchalik uning nomini jahonga mashhur qilgan rasadxona-observatoriyaning qurdirib, o'zining falakiyot maktabini yaratadi. U o'zining bu maktabiga o'z zamonasining eng buyuk olimlarini jalb qilib, ularga o'zi boshchilik qilgan holda, ilmiy tadqiqotlar olib boradi. U o'zining butun qobiliyat va iqtidorini, salohiyatini hukmdorlikdan ko'ra ilmiy faoliyatga ko'proq qaratadi. Natijada, 1428-1438 yillar davomida o'z ustozlari va shogirdlari bilan hamkorlikda olib borgan ilmiy kuzatishlarining yakuni sifatida uning shoh asari—"Ziji jadidi Ko'rogoniy" asari maydonga keladi.

Mirzo Ulug`bek uzoq yillar mobaynida Movaraunnahr diyorini nomdor hukmdori bo'ldi. Xukmdor sifatida u tinchlik, totuvlik, har tomonlama taraqqiyotni qaror toptirish yo'lida mislsiz shijot matonat ko'rsatadi.

Mirzo Ulug`bek ta'limotida ilm inson ma'naviyatining asosi ekanligi haqidagi g'oya yetakchi g'oya yotadi. Darhaqiqat, ilm jaholat, xurofotning kushandasidir. Ilm insonni g'aflat uyqusidan uyg'otadi, fikrni teranlashtiradi, tafakkurni o'tkirlashtiradi. Inson ilm-ma'rifat yordamida ulug`lar darajasiga yetadi. Ulug`bek o'zi qurdirgan madrasa peshtoqiga: «Bilim olish har bir muslim va muslimaning burchidir», deb yozib qo'yilgan.

Mirzo Ulug`bekning fikricha, odob va axloq inson ma'naviyati va ma'rifati kamolotida katta o'rin egallaydi. Insonlar orasidagi o'zaro munosabat, odamgarchilik, mehru-muhabbat, do'stlik, birodarlik, ahillik asosida yashash va faoliyat ko'rsatish aqliy-axloqiy tarbiyaga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Mirzo Ulug`bek o'z qarashlarida haqiqiy va soxta do'stlarini ajratish lozimligi, g'arazli kishi do'st bo'lmasligi, bunday «do'stlar» kishilarni to'g'ri yo'ldan chiqarishi haqidagi g'oyalarini dasturiy yo'llanma sifatida ilgari surgan. Mirzo Ulug`bekning hech qachon ixtiyoringni tilyog`lamaga berma, atrofingga

laganbordonlarga to'plama, ular sening emas, o'z manfaatlarini ko'zlab seni maqtaydilar. O'z ixtiyorini shunday kishilarga berib qo'ygan hukmdorga sadoqatli insonlarni yaqinlashtirmaydilar, degan ibratli so'zlari mavjud. Uning fikr-mulohazalaridan ko'rinib turganidek, qalbi pok, niyati buzuq, iymoni buzuq, beoqibat kishilardan har qanday yo'l bilan bo'lsa-da. Yiroq bo'lish, tuzog'iga ilinmaslik tilyog'lamaligiga uchmaslik, aksincha, zoti toza, nasl-nasabli kishilarni qo'ldan qo'ymaslik kerak. Inson yakka yolg'izlikda qila olmagan yumushlarini ko'pchilik bilan birgalikda bajarishi mumkin. Do'stlarsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Ulug'bekning ilmiy amaliy faoliyati uning bu nazariy fikrini tasdiqlaydi.

Ulug'bek ijtimoiy-siyosiy ta'limotida mehnatsevarlik haqidagi g'oyani o'z davri talab va ehtiyojlarini nazarda tutib rivojlantirdi. Tinimsiz harakat qilmasang, mehnat qilib kasb-hunar o'rganmasang, murabbiylardan ta'lim-tarbiya olmasang, - deydi bu haqida u, - aql- zakovatda yetuk, odob-axloq va bilimda barkamaol bo'la olmaysan, jamiyatda qadr-qimmat topolmaysan. Amir Temur ta'limoticha, tuzuklaridagi belgilab berilgan qonun qoidalarga umrbod sodiq qoldi, Amir Temurning «kuch adolatdadir» degan, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan dono o' g iti va sabog'i Mirzo Ulug'bekning shoh va donishmand sifatidagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy faoliyatida mezon bo'lib xizmat qildi.

XV asrning boshlariga kelganda Samarqandda falakiyot va riyoziyot fanlari kuchli taraqqiy etadi. Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot maktabi, falakiyot rasadxonasi va u qurdirgan observatoriya o'sha davrda tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Nihoyat, bu davrda falsafa va mantiq ilmlari bilan shug'ullangan yirik olimlar paydo bo'lib, bu sohalarga oid maxsus risolalar ham yaratiladi. Bunga misol qilib Sa'diddin Taftazoniy va Mir Said Jurjoniylar yaratgan asarlarni ko'rsatish mumkin. Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot maktabi vakillari: Mansur Koshiy, Qozizoda Rumiylar, Ali Qushchi, G'iyosiddin

Jamshid va boshqalar esa tabiatshunoslikning falsafiy masalalariga oid o'zlarining qimmatli fikrlarini ilgari surishadi.

Mirzo Ulug`bekning bundan tashqari, yana «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», «Risolai Ulug`bek» kabi astronomiyaga oid, «Tarixi ulus arba'a» («To'rt ulus tarixi»), uning muhtasari «Shajarai at turk» tarixga oid hamda bir necha musiqaga oid asarlari ham mavjud.

Nihoyat, Mirzo Ulug`bek bobosi sohibqiron Amir Temur vafotidan keyin temuriyzodalar, mahalliy hukmdorlar, johil shariat peshvolari, xususan, ota-bola-shoh va shahzodalar o'rtasida kurashlar oqibatida uning mansabparast o'g'li – Abdullatif tomonidan 56 yoshida 1449 yil 27 oktabrda fojiali o'ldiriladi. U boshlagan ilmiy ishlarni uning shogirdlari: G`iyosiddin Koshiy, Oloviddin Ali Ibn Muhammad Qushchilar va boshqalar tomonidan davom ettiriladi!.

Ulug`bekning «Ziji jadidi Ko'rogoniy» asari: kirish (nazariy qism) va to'rtta katta boblardan iborat. «Kirish»ning o'zi mustaqil to'rt qismni o'z ichiga olib, uning boshida «Qur'on»dan yulduzlar va sayyoralarga taaluqli oyatlar keltirilib, bu bilan astronomik kuzatishlarning zarurligi o'sha davr g'oyaviy talablaridan kelib chiqib asoslanadi. «Kirish»ning keyingi qismlarida bu ilmiy tadqiqotlar qanday maqsadda qaysi olimlar ishtirokida olib borilganligi, ularga muallifning minnatdorligi ilmiy tadqiqot qachon va qanday boshlanganligi, unda qanday ilmiy usullar va asboblari qo'llanganligi va nihoyat, qachon tugaganligi yoritib berilgan. Asarning birinchi bo'limi - «Tarix, ya'ni xronologiyaning ma'rifati» deb atalib, uning o'zi yetti bobni o'z ichiga oladi. Bu boblarda islomda qo'llaniladigan asosiy era-xijriy era bilan sur'yoniyyunon erasi, ularda keltirilgan sanalar boshqa «jaloliy»erasi, xitoy va uyqur erasi, hind-forsiy eralar bilan solishtirilib, ulardagi mashhur kunlar haqida bahs yuritiladi. Bu bo'limda, shu bilan birga, turkiy muchal yillari haqida ham keng fikr yuritiladi.

Ikkinchi bo'lim - «Vaqlar va ularga taaluqli narsa va hodisalar» deb atalib, unda asosan, matematika va sferikastronomiya masalalari yoritiladi.

Bunda olim ekleptikaning osmon ekvatoriga og`ish burchagining aniq miqdorini topganligi - u 23 daraja 30 daqiqa, 17 soniya ekanligini yozadi. Bu miqdor O`rta asrlar davri uchun nihoyatda aniq o`lchangan miqdor edi.

Asarning uchinchi bo`limi – 13 bobdan iborat bo`lib, ularda faqat astronomiya masalalari: Quyosh, oy va boshqa besh sayyoraning harakatlari, «turg`un yulduzlar»ning uzunlama va kenglama holatlari yoritiladi.

Muallifning bu bo`limda keltirgan yulduzlar jadvallari o`z davri uchun eng nodir va mukammal jadvallar bo`lgan.

Nihoyat, «Ziji jadidi Ko`rogoniy»ning oxirgi to`rtinchi bo`limi, asosan, ikki bobdan iborat bo`lib, u ilmi nujum astrologiyaga bag`ishlangan.

Mirzo Ulug`bekning bu asari o`z davridagi eng mukammal astronomik asar sifatida tezda zamondosh olimlarning diqqat e`tiborini o`ziga jalb qiladi va ular ijodiga ta`sir ko`rsatadi. Uning qo`lyozmalari tez orada Yaqin va O`rta Sharq, Xitoy va Xindiston olimlari qo`llariga ham yetib boradi.

Ulug`bek vafotidan keyin Istambulga borib yashagan va ijod qilgan shogirdi –Ali Qushchi tufayli XVI asr o`rtalarida bu asar Yevropa olimlari tomonidan lotin, ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilinib, nashr etiladi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi “Mirzo Ulug`bekning ilmiy merosi va uning tarixiy ahamiyati” bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo`lib hozirgi kun tarixchilari tomonidan atroflicha o`rganilmoqda. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda quyidagi rejalar asosida bitiruv malakaviy ishi yozildi. I-bobda. Ulug`bek davri Movarounnahrda iqtisodiy-siyosiy vaziyat ya`ni Amur Temur vafotidan so`ng Movarounnhar va Qurosonda vaziyatning keskin tus olishi shaxzodalar o`rtasidagi kurash, Mirzo Ulug`bekning hokimiyatga kelishi va boshqaruv usuli uning amalgam oshirilgan memorchilik ishlari atroflicha yoritildi. Murzo Ulug`bek davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat savdo-sotiqning rivojlanishi, elchilik aloqalari Ulug`bekining mohir deplomatikligini ko`rishimiz mumkin. Bundan tashqari Ulug`bek davridagi harbiy yurishlar,

g'alabal va mag'lubiyatlar va ularning sabablari bitiruv malakaviy biinchi bob va ikki chismdan iborat qilib yoritildi. Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida Ulug`bek davridagi O`rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining tarixshunosligiga e`tibor qaratilib bu bob uch qismdan iborat bo`ldi. Uning birinchi qismida Ulug`bek davri o`rganilishi tarixshunosligi bugungi kunda sho`rolar davrida hamda mustaqillik davrida tarixchi olimlar tomonidan aytilgan fikrlar o`rganilgan tarixiy manbalar atroflicha yoritishga harakat qilindi. Ikkinchi qismida Ulug`bek qoldirgan buyuk meros tarixiy asar hamda aynan o`zi tomonidan yozilgan "To`rt ulus tarixi" asari ham atroflicha o`rganilib bitiruv malakaviy ishining asosini tashkil etdi. Bu asar tarixiy manba sifatida bugungi kunda ham o`z qadr-qimmatini yo`qotmagan va tarixchilar tomonidan doim ezozlanib kelinmoqda. Uchunchi qismida Ulug`bekning hukumronlik qilgan davrida yozilgan va bizga meros qoldirilgan Ulug`bek davri madaniyat tarixshunosligiga e`tibor qaratildi. Bunda o`sha davrda yaratilgan tarixiy manbalar atroflicha o`rganildi. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda Prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q" asarida tarix fanining imkoniyatlaridan foydalanib, "Aql – zakovatli, yuksak ma`naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo`ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi",<sup>1</sup> - deb ta`kidlagan fikrlari alohida ko`rsatib o`tildi u kishining Ulug`bek haqida aytgan eng yaxshi fikrlari bitiruv malakaviy ishida foydalanildi.

**Mavzuning o`rganilish darajasi.** Mustaqillik sharofati mavzuga doir turli ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar yetakchi tarixchi olimlar tomonidan olib borilmoqda. Ular tomonidan yaratilgan mavzu bayoniga oid monografiya, darsliklar va to`plamlar chiqarilibgina qolmasdan, balki ittifoq davrida maxfiy hisoblangan hujjatlar va shu bilan birga Ulug`bek tarixiga doir ilmiy va badiiy qo`lyozmalar bilan yaqindan tanishish imkoniyati ham paydo bo`ldi. Yig`ilgan ma`lumotlarni xarakteriga ko`ra, tarixini u yoki bu darajada yorituvchi ilmiy-ommabop adabiyotlarni quyidagi guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi

¹ I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T. "Sharq". 1998. 7 – bet.

guruhga qadimdandan to mustaqillikkacha bo'lgan oraliqda nashr etilgan ilmiy asarlar, ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida mahalliy tarixchilar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida nashr etilgan ilmiy asarlarni kiritish mumkin. Mavzuni yoritishda asosan prezidentimiz I .A. Karimov asarlaridan foydalinildi. Foydalanilgan adabiyotlar asosan bugungi kun talabiga to'liq javob bera oladigan atroflicha yoritilgan tarixiy manbalar, tarixchi olimlarning fikrlari va Oily ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan adabiyotlardan foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 5 – moddasida "...tegishli ma'lumot, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega"¹ ekanligi aytiladi. Bitiruv malakaviy ishi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining meyoriy xujjatlarida ko'rsatilgan talablari asosida tayyorlandi

Mavzuning maqsad va vazifalari.: : Ulug`bek davridagi O`rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining tarixshunosligi.

ochib berish maqsadida amalga oshirish lozim bo'lgan quyidagi
quyidagi vazifalarini belgilab beradi:

- Mirzo Ulug`bekning hokimiyatga kelishi va boshqaruv usuli.
- Mirzo Ulug`bek davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.
- Mirzo Ulug`bekning qomusiy olim sifatida ilm-fan rivojiga qo'shgan bebaho hissasi.
- Ulug`bekning "To'rt ulus tarixi" asari tarixiy manba sifatida.
- Yosh avlodni ma'naviy jihatdan kamol topib borishida Mirzo Ulug`bek ilmiy merosining tutgan o'rni va ahamiyati

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. BMI kirish, beshta paragrafni o'z ichiga olgan ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatlaridan iborat.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. "Sharq", 1997. 21 – bet.

I-bob. XV asrda Movarounnahrda madaniy hayotning yuksalishiga ta'sir etgan omillar va tarixiy shart-sharoit.

1.1. Mirzo Ulug`bekning hokimiyatga kelishi va boshqaruv usuli.

Sohibqiron Amir Temurning sevimli nevaralaridan biri, riyoziyot, falakiyot, musiqashunoslik va tarix ilmlari sohasida qalam tebratgan davlat arbobi Mirzo Ulug`bek 1394 yilda Sultoniya shahrida dunyoga kelgan.

Amir Temur yetti yillik (1399—1404 yillar) urushdan g`alaba bilan qaytar ekan, Sultoniyadan Tabrizga ug`ruqni¹ chaqirtirib Saroymulk xonim, Tuman og`o, Cho'lpon Malik, Qonzoda begim kabi malikalar va boshqa shahzodalar bilan uchrashgan edi. Ular orasida Ulug`bek ham bo'lgan. Sohibqiron sevimli nevarasi Mirzo Ulug`bekni bag`riga bosib, unga Damashqning mohir qilichsozlari yasagan oltin dastali shamshirni tortiq qiladi.

¹ O`g`ruq — podshoh, xon va sultonlarning oila a'zolari va ularning tirikchilik anjomlari ortilgan karvon. Shahzodalar yoki amirlardan biri qo'shini bilan unga qo'riqchilik qilgan.

O'g'ruq 1404 yil 21 may kuni Feruzkuh qal'asidan Buxoroi sharif orqali Samarqandga yo'l oladi.

Sohibqiron Termiz va Kesh orqali o'z poytaxti tomon o'tlanadi. «Keshda faqat bir necha tunadi va ertalab piri Shamsiddin Kulol, ulug' otasi, onasi, o'g'li Jahongir va boshqa qarindosh-urug'larining hokipoylarini ziyorat qilgandan keyin to'xtovsiz yana yo'lga tushdi».¹

Sohibqiron Samarqandga kelgach, ikkinchi kuni shahar hokimi Argunshoh Bog'i Chinorda Amir Temur sharafiga katta ziyofat uyushtiradi. Ziyofat chog'ida Sohibqironning xotirasiga ug'ruq tushib, ularning kelmaganligiga xavotir bo'lib: «Axir, u Xurosonda, Feruzkuhda, ancha orqada qolgandi-ku! Mahdulyo Saroymulk xonim va Tuman og'olar, Mirzo Ulug'bek, Ibrohim Mirzo va boshqa shahzodalar ham o'sha ug'ruqda edi-ku!»² Amir Temur darhol ularning istiqboliga Argunshoh boshliq qirq yigitni yuboradi. Ular o'g'ruq bilan Buxoroi sharifda uchrashadilar va ularni Sohibqiron sabrsizlik bilan kutayotganligini bildiradi. Bu haqda Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»da quyidagicha guvohlik beradi: «...Buxoroga yetib tushub erdigim, Sohibqironning yibarkon elchisi keldi. Saroymulk xonim keyin erdi, uch kun anda turdikim, barcha og'olar yetishdilar. Andin og'olar ug'ruqdin ilgari bo'lib, ta'jil bila yuridilar. Raboti Malikdan o'tib, Chahor Minorga kelib tushtilar, andin Totgant va kucha Malikka kelib tushtilar»³.

Sohibqiron 1405 yilning 18 fevralida Xitoyga yurish paytida O'trorda olamdan ko'z yumgach, uning tobutini 24 fevral kuni amirlar Samarqandga olib ketishga ravona bo'ladilar. Samarqand sari o'tlangan amirzodalar orasida Ulug'bek ham bor edi. U endigina 11 yoshga kirgan edi.

Ular Samarqandga yaqinlashgach, Amir Arg'unshoh shaharga faqatgina Amir Temurning tobuti orilgan taxtiravonnigina kiritadi. Qolganlarga esa Sohibqironning vasiyatini ro'kach qilib: «Borliq shahzodalar ittifoq bo'lib

¹ B.Ahmedov. Amir Temur. Tarixiy roman. T., 1995, 559-bet.

² O'sha joyda.

³ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T., 1997, 289-bet.

amirzoda Pirmuhammad Jahongirni podshoh kutarmagunlaricha biror zot qal'aga doxil etilmaydir», deb hech kimni Samarqandga kiritmaydi.

Barcha amiru amirzodalar Samarqand yaqinidagi Aliobodda zudlik bilan kengash o'tkazib, Ulug`bekni dastlab Buxoroga, u yerda turish imkoni bo'lmasa, Xurosonga, otasi Shohrux Mirzo oldiga yuborishni rejalashtiradilar.

Ulug`bekka ayniqsa uni voyaga yetgazgan ulug` siymo — Saroymulk xonim bilan xayrlashish juda og`ir botadi.

1405 yilning 5 mart kuni Ulug`bek va Ibrohim Sulton hazrati oliyalari — Saroymulk xonim bilan xayrlashadilar va Shayx Nuriddin bilan amir Shohmalik boshchiligida Buxoro tomon ravona bo'ladilar. Ular Dabusiya qal'asiga yetib kelgach, hali dam olishga ulgurmasdanoq Samarqanddan chopar kelib, Saroymulk xonimdan Ulug`bek Mirzoga muhrlangan maktubni uzatadi. Unda: «Ulug`jon jigargo'sham! Mirzo Qalil Sultonning niyati buzuv ko'rinadir. Va yana oning Buxoroda ham odamlari borgan o'xshaydir. Qarholda o'zingizga ehtiyot bo'ling. Menga qolsa, o'sha yerdin tezroq ixroj bo'lib, ulug` otangizning oldiga, Qiriya shoshilganingiz ma'qul...»¹ degan so'zlar bitilgan edi.

Bu maktub bilan Saroymulk xonim Samarqand taxti Xalil Sulton qo'liga o'tganligi va notinchlik davri boshlanganligini bildirgandi.

Ulug`bek atrofida gilar bilan Dabusiya qal'asidan chiqib, Shohruhiyaga — Buyuk Ipak yo'liga tushadilar. Bu yo'l bilan Buxorogacha yigirma sakkiz farsaxlik (168—196 km) yoki 8—9 kunlik yo'l edi.

Ulug`bek va Ibrohim Sultonlar yo'lini turli-tuman parrandalar kesib, uyoqdan-buyoqqa o'tardilar. Amirzodalar esa g`amgin va notinch ravishda Buxoroi sharif tomon oshiqardilar.

1406 yil fevralida Xalil Sultonga qarshi janglarda Shohmalik va Pirmuhammadlar yengilgach, Ulug`bek Shohmalik bilan otasi Shohrux huzuriga jo'nab, davlatni boshqarish ilmi bilan shug`ullana boshlaydi.

¹ B.Ahmedov. Ulug`bek (Esse). T., 1989, 40—41-betlar.

Shohrux o'g'li Ulug'bekni Samarqand hukmdori etib tayinlaydi.

Mirzo Ulug'bek ilm-fan rivojiga katta e'tibor berib, 1417 yilda Buxoroda katta madrasa qurdiradi va har safar madrasa qurilishlaridan xabar olib turadi.

Mirzo Ulug'bek bobosi Amir Temur an'analarini davom ettirib, turli davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni yaxshilashga harakat qiladi. Bu davrda Xitoy va Hindiston bilan diplomatik munosabatlar o'rnatiladi.

1420 yilda Shohrux va Ulug'bek 530 kishidan iborat elchilik karvonlarini Xitoyga yuboradi.

1421 yilda Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi.¹

Ulug'bek va Shohrux Hindistonga Vijayanagar saroyiga tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligida elchilar yuboradi. Muarrix Abdurazzoq Samarqandiy (1413—1483 yillarda yashagan) «Matla' us-sa'dayn va majma'a ul-baxrayn» "Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish o'rni" kitobida temuriylar va shu jumladan Mirzo Ulug'bekning Karmanada bo'lganligi haqidagi voqealarni Hofizi Abro'ning «Majmu'a at-tavorix» kitobidan olingan manbalar asosida bayon etgan. Unda ko'rsatilishicha, Mirzo Ulug'bek 1419 yilning 18 noyabrida Karmana orqali Buxoroga borib, Xorazmdan Shohmalik yuborgan vakillarni qabul qiladi. Ular Ulug'bekka sovg'a tariqasida bir necha ov qilishga o'rgatilgan qushlarni taqdim etadilar.¹

1419 yilning 28 noyabrida esa o'zi qurdirgan Buxorodagi madrasaga tashrif buyurib, mullavachchalar va ularning domlalariga sovg'alar in'om etadi hamda ular bilan qizg'in suhbatlar quradi.

«XIX asr oxirlarida bu madrasada 80 hujra bo'lib, unda 200 dan ortiq talaba tahsil olgan. Ularning har biri yiliga 3,5 tilladan stipendiya olishgan, bu mablag' tirikchilik va kitob harajatlarini to'la ta'minlagan. Bu haqda 1841—1842 yillarda Buxoroga kelgan rus tarixshunosi N.V.Xanikov o'zining 1843 yilda Sankt-

¹ A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar saltanati. Tarixiy ocherk. T., 1996, 85-bet.

¹ Qarang: B.Shalotonin. Gorod na beregu Zarafshana. «Kizilkum», 1999, 20—40-sonlar.

Peterburgda chop etgan «Buxoro xonligining tasviri» kitobida guvohlik beradi», deb yozadi tarixchi olim Farhod Qosimov.²

Mirzo Ulug`bek Buxorodan Samarqand sari otlar ekan, unga Qashqardan kelgan amirlar ham hamroh bo`ladilar.

Hofizi Abro`ning «Zubdat ut-tavorixi Boysung`uriy» asarida ko`rsatilishicha, 1419 yilning noyabridan 1420 yilning 8 yanvarigacha rosa 40 kun Ulug`bek Xatirchi atrofidagi Kufiyn qal`asida to`xtab ov qilgan. Bu joylarning havosi tozaligi, buloqlarga boyligi, sero`t tog` yaylovlari, ayniqsa, hayvonot olami Mirzo Ulug`bek va uning sheriklarini maftun etgan, hayvonot olamiga juda ham boy joylar hisoblangan.<sup>1</sup> Bu o`simliklarning aksariyati ko`pyillik bo`lib, yovvoyi hayvonlar va chorva mollari uchun tuyimli ozuqa hisoblanadi.

O`rta Osiyo tarixi tadqiqotchilaridan biri G.A.Pugachenkova Amir Temur va temuriylar davrining miniatyura maktabi haqida fikr yuritarkan ekan, bugun Amerika Qo`shma Shtatlarining Vashington shahridagi Frir galereyasida saqlanayotgan Ulug`bek hayotida davrida chizilgan bir ov manzarasining tasviri tushirilgan miniatyura to`g`risida yozadi. Unda Tarag`ay Bahodirning tabiat qo`ynida o`z oila a`zolari bilan dam olayotgani tasvirlanib, o`rtada Mirzo Ulug`bek, atrofidagi gilamchalarda ayollari — begimlarga xos anvoyi kiyimlarda savlat tukib o`tirgani, boshlaridagi ro`mol ostidan bezakli taqinchoqlari ko`rinib turganligi, yonlarida kichkina shahzodalar o`tirgani chiroyli chizilgan. Sal nariroqda esa amirlar, beklar, saroy a`yonlari Ulug`bekka iltifot bajo qilib turibdilar. Xizmatkorlarning qo`llarida esa burgutsimon ovchi qushlar, o`q to`la sadoq, ayrimlari esa anvoyi taomlarni uzatish taraddudida tasvirlangan.

Bu miniatyurada Ulug`bekka alohida e`tibor berilgani, ranglarga nihoyatda boy, yam-yashil o`tloq va osmonning zarrin yog`dusida odamlar ustidagi rang-barang kiyim-kechagi ov manzarasini juda ham boyitishga xizmat qilganligi ko`rsatiladi.

² F.Qosimov. Temuriylar davrida Buxoro. Buxoro, 1996, 60-bet.

¹ A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar saltanati. Tarixiy ocherk. T., 1996, 85-bet.

Quddi shunga o'xshash yana bir miniatyura Londondagi Geyr kolleksiyasida saqlanayotgani ham xabar qilinadi.²

Bu miniatyuralar Mirzo Ulug'bekning Zarafshon daryosi bo'ylariyu Sarmish, Nurota tizma tog'lari atrofidagi ovlarini eslatmasmikan?

Ulug'bek Samarqanddan G'ijduvon va Buxoroga o'tishda bir necha marta Karmanada to'xtab o'tganligi ham ma'lum. Ulug'bek XV asrning 30—40-yillarida otasi Shohrux Mirzo bilan Dashti Qipchoqning Sharqiy qismida tashkil topgan O'zbek ulusi xoni Abulxayrxonga qarshi muttasil janglar olib borishga majbur bo'ladi. Ko'chmanchilar qish fasllarida Movarounnahr hududlariga tez-tez bostirib kirar, shahar va qishloqlarni talab ketar edilar. Karmana ham bundan mustasno emas edi. Ayniqsa, 1431 va 1435 yillardagi Abulxayrxon hujumi Samarqanddan Xorazmgacha bo'lgan hududni qamrab, jumladan, Karmana va uning atroflarida Shohrux Mirzo bilan birga o'g'li Ulug'bek ham bu jangu jadallarda ishtirok etgan.

Mirzo Ulug'bek bobosi Sohibqiron Amir Temur singari islom ulamo va pirlariga katta ehtirom bilan qaraydi. Shulardan biri Abdulxoliq G'ijduvoniya atab, uning maqbarasi yonida 1432—1433 yillarda madrasa qurdiradi. Bu madrasa bugun g'ijduvonliklarning va Abdulxoliq G'ijduvoniyni ziyorat qilishga keluvchilarning sevimli maskaniga aylangan.

Mo'g'ullarga qarshi kurashgan Mahmud Torobiy hayoti bilan qiziqqani va bu haqda yozib qoldirgan tarixiy lavhalari maroqlidir. Ulug'bek o'zining «Tarixi arba' ulus» «To'rt ulus tarixi» asarida Mahmud Torobiy haqida to'liq ma'lumotlar berib, uning botir va jasurligini, keng xalq ommasi uni qo'llab-quvvatlab, «shaharning butun aholisi tashqariga otilib chiqib, (Mahmud Torobiy) atrofiga jam bo'ldilar», deb ta'kidlaydi. Ulug'bek bu kitobida uning Cho'li Malikda qum tuzonlari orasida halok bo'lganini tasvirlab, «nogoh qazo qamondori shastidan jon oluvchi o'q — qadar novagi Shayx Mahmud Torobiy qatli uchun yetib kelib tegdi. U yiqilib jon berdi. Uning o'limidan hech kim voqif bo'lmadi.

² **Qarang:** Temur va Ulug'bek davri tarixi. T., 1996, 210—211-betlar.

Zero, o'sha hangomda qattiq shamol qo'zg'alib, o'lgan tuzon paydo bo'ldi. Chunonchi, odamlar bir-birovini hech bir ko'rmay qoldilar. Mug'ul lashkari buni Shayxning karomatiga yo'yib, jang qilishdan yuz o'girdilar; Torobiy odamlari ularning payida tushdilar. Tangri xalqidan qariyb o'n ming nafar kishi o'ldirildi».

Ulug`bek Malik cho'lida bo'lgan bu shafqatsiz jang haqida, Mahmud Torobiyini xalq Shayx va lashkarboshi sifatida ulug`lagani to'g'risida fikr yuritib, quyidagilarni bayon etadi: «Shayx odamlari qatl etish va talon-torojdan qul tortganlarida, o'z shayxlaridan nomu nishon topmadilar. «Shayximiz g'oyib bo'libdi. Biz odamlarning ko'zidan g'oyib bo'lmog`ni istabdilar. Shayx qaytib kelgunlaricha u kishining inilarini Shayx o'rniga qoyilmaqom qilarmiz», deb Muhammad, Ali degan (ukalari)ni Shayxning qoyilmaqomi qildilar. Barcha avom va bebosh odamlar ul kishiga tobe'lik kamarini jonlari beliga bog`ladilar va (duoga) qo'l ko'tardilar. So'ng ko'ngillariga nima kelsa qila boshladilar, ne aytkilari kelsa, aytdilar».¹

¹ *Mirzo Ulug`bek*. To'rt ulus tarixi. T., «Cho'lpon» nashriyoti, 1993, 301-bet.

1.2. Mirzo Ulug`bek davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat.

1409-yilda Shohruh Samarqanddan Qirotda qaytish oldida Mirzo Ulug`bekni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi. Ulug`bek Samarqand taxtiga o`tirgan vaqtida o`n besh yoshdagi o`spirin edi. Mamlakatni idora etish tabiiy uning uchun mushkul edi. Shahzoda balog`atga yetgunga qadar davlatni boshqarishni Shohruh o`zining sodiq amaldorlaridan biri Shoh-malikning ixtiyoriga topshiradi.

Ulug`bekning asli ismi Muhammad Tarag`ay bo`lib, u Amir Temurning Yaqin Sharqda besh yillik yurishlari vaqtida 1394-yilda Sultoniya shahrida tavallud topadi. U Amir Temur o`rdugohi va saroyida katta onasi Saroy Mulkxonim va onasi Gavhar-shodbegimlarning bevosita panohida tarbiyalanadi. Sohibqironning boshqa nabiralari qatorida u Amir Temurning harbiy yurishlari va saroy an`analarida ishtirok etadi. Besh yoshidan boshlab Ulug`bek Shayx Ozariy nomi bilan keyinchalik shuhrat topgan mashhur olim Shayx Orif murabbiyligida tarbiyalanadi. Undan xat-savod va hisob bo`yicha ilk saboqlarini oladi. So`ngra Ulug`bekka otaliq etib Amir Shohmalik tayinlanadi. Otaliqdan u tabiiy, davlatni

idora qilish san'ati - lavozimlarga mansabdor shaxslarni tayinlash, soliq to'plash, ruhoniylar, amaldorlar va o'zga yurtlardan tashrif buyurgan elchilarni qabul qilish, xayr-u sadaqa berish kabi tartib-qoidalar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ulug`bek 10 yoshga to'lganda uni Muhammad Sultonning qizi |Og`obegimga unashtiradilar. Ona tomonidan Og`obegimning nasl- u nasabi Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1312-1342) xonadoniga mansub bo'lgani tufayli, Ulug`bek ham bobosi kabi "ko'ragon" unvoniga sazovor bo'ladi. Ulug`bek davlati janubda Amudaryo, g'arbda Buxoro vohasiga tutashib ketgan Urganjiy dashti (Markaziy Qizilqum)ning sharqiy hududlari, shimolda Sirdaryoning quyi oqimidagi Sig`noqva O'tror i shaharlari, sharq va shimoli-sharqda Sharqiy Turkiston bilan chegaralanardi. Ulug`bek garchi Movarounnahr bilan Turkistonning hokimi deb e'lon qilinsa-da, aslida uning hokimiyati dastaval; faqat Samarqand, Buxoro va Nasaf viloyatlari bilangina cheklanadi. Chunki Shohruh avval boshdan Farg'onani to O'zgangacha Amirak Ahmadga, Hisoni Shodmonni Muhammad Jahongirga in'om qilib, Ulug`bekni birmuncha cheklab qo'yadi. Buning ustiga Turkiston Shayx Nuriddinning tasarrafida edi. O'sha vaqtda u na Ulug`bek va na Shohruhni tan olardi. Shuning uchun ham hali mamlakat notinch edi.

Samarqand. Shayx Nuriddin Turkiston bilan qanoatlanmaydi. 1410-yilda u Muhammad Jahongir, Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi Amir Abdulholiq hamda oqo'rdalik xonzodalardan Chingiz O'g'lonlar bilan ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi isyon ko'taradi. 1410-yil 20-aprelida Samarqand yaqinida Qizilravot mavzeida isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug`bek va Shohmaliklarning qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Jangda Ulug`bek mag'lubiyatga uchrab Kalifga tomon qochadi. Shohruh 1410-yilning yozida isyonni bostirish uchun katta kuch bilan Samarqandga yetib keladi. Shayx Nuriddin isyoni bostirilgach, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan shaharlar:

Toshkent, Yassi, Sabron, Sayram, Yangi yana Temuriylar davlati tarkibiga qo'shib olinadi va bu o'lkalarni idora qilish ham Ulug'bekning zimmasiga yuklanadi.

O'sha paytlarda Ulug'bek bilan Shohmalikning munosabatlari buzilib qoladi. Chunki shuhratparast otaliq Ulug'bekni davlat ishlariga "yaqin yo'latmay, hatto u bilan hisoblashmay ham qo'ygan edi. Shu sababli Shohruh 1412-yilda Shohmalikni Samarqanddan olib ketishga majbur bo'ladi. Shu vaqtdan boshlab batamom Movarounnahr va Turkistonni boshqarish 18 yashar Ulug'bek qo'liga o'tadi.

Qarbiy yurishlar Mamlakatda ma'lum darajada hokimi mutiaq bo'lib olgan Ulug'bek endilikda Farg'onani amakivachchasi Amirak Ahmad qo'lidan tortib olib, bu o'lkada o'z hukmronligim o'rnatishga intiladi. O'z maqsadini amalga oshirish uchun u dastlabki mustaqil harakatni 1414-yilda Faig'onaga yurishdan boshlaydi. Ulug'bekning qo'shiniga bas kelishga ko'zi yetmagan Amirak Ahmad jangsiz Andijon va Axsini topshirib, O'sh va Oloy orqali Koshg'arga qochadi. Ammo oradan ko'p vaqt o'tmay Koshg'ar hokimining madadi bilan O'sh yaqinidagi jangda Ulug'bek qo'shinini mag'lubiyatga uchratib Farg'onani qaytarib oladi. Bu voqeadan so'ng Ulug'bek 1415-yilning bahorida Faig'onaga ikkinchi marta qo'shin tortishga majbur bo'ladi. Bu gal ham Amirak Ahmad Ulug'bekdan cho'chib yana Koshg'arga qochadi. Shohruhning Amirak Ahmad nomiga ishonchnoma yuborib, bu ishga aralashuvi tufayli shahzodalar o'rtasidagi o'zaro nizo bartaraf etilib, Farg'ona unga tobe bo'lib, Koshg'ar ham Ulug'bekning qo'liga o'tadi.

1413-yilda Shohruh tomonidan Xorazm Oltin O'rda xonlari tasarrufidan qaytarib olingach, Ulug'bek davlatining g'arbiy va janubiy chegaralarining xavfsizligi muqimlashgan bo'lsa-da, amm^o uning shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy tomonlari hali xavotirli edi. Shu sababli Ulug'bek bu davrda Dashti Qipchoqda boshlangan o'zbek shahzodalarining o'zaro olishuvlariga hamda

Mo'ng'ulistonda avj olgan ichki kurashlarga jiddiy e'tibor berishga va aralashishga majbur bo'ladi.

Ulug'bek ko'magi bilan Dashti Qipchoqda O'zbek ulusida Baroq O'g'lon, Mo'ng'ulistonda Shermuhammad O'g'lon hokimiyatni qo'lga oladilar. Qar ikki shahzodalar orqali Ulug'bek bu ikki qo'shni o'lkalarda o'z siyosatini o'tkazishni mo'ljallagan edi. Biroq bu xonlar Ulug'bekning ishonchini oqlamaydilar. Shundan so'ng Ulug'bek otasining rizosi bilan 1425-yilning erta bahorida Mo'ng'uliston ustiga yurish boshlaydi. Issiqko'l yaqinida, sodir bo'lgan to'qnashuvda Ulug'bek mo'ng'ullar ustidan g'alaba qozonadi va katta o'lja bilan Samarqandga qaytadi. O'ljalar orasida ikki bo'lak nefrit toshi ham bor edi. Keyinchalik bu nefritdan Amir Temur maqbarasi uchun qabr toshi yasattiriladi. Mo'ng'uliston urushi Ulug'bek olib borgan jiddiy urushlarning birinchisi va so'nggisi edi. Bu qirq yillik podsholik davrida Ulug'bek qozongan birinchi zafar edi. Bu zafarli yurishning nishoni tarzida Jizzax yaqinida Ilono'tti darasi ichida hijriy 828(1428)-yilda Ulug'bek tomonidan qoyatoshga yozdirilgan o'ziga xos "zafarnoma" hozirgi kungacha saqlangan.

Oradan ikki yil o'tgach Ulug'bek Dashti Qipchoqda o'z siyosiy mavqeini mustahkamlab olgan Baroq O'g'longa qarshi yurishga majbur bo'ladi. Ulug'bek yordami bilan o'zbeklar ulusida taxtdor bo'lib olgan Baroq O'g'lon uning muruvatini unutib, endilikda Sirdaryo bo'yidagi O'tror, Sabron va Sig'noq singari shaharlarga da'vogar bo'lib chiqadi. Unga qarshi yurishda Ulug'bekning omadi kelmaydi. Baroq O'g'lon Sig'noq yaqinida tunda Ulug'bek qo'shinini choratrofdan bosib, unga qattiq zarba beradi. Baroq O'g'lonning lashkari uni Samarqand ostonalarigacha ta'qib qilib boradi. Bu mag'lubiyatdan keyin Ulug'bek el-yurt va otasi oldida yuzi shuvut bo'lib, Samarqand taxtidan va Movarounnahr hukmdorligidan ajralishiga sal qoladi. Sig'noq mag'lubiyatidaft o'ziga kerakli saboqni chiqargan Ulug'bek, garchi umrining oxirigacha o'zga viloyatlarga harbiy yurish uyushtirishga jur'at qilmagan bo'lsa-da, XV asrning 30-40-yillari otasi

Shohruh bilan Dashti Qipchoqning sharqiy qismida istiqomat qiluvchi aholini o'ziga bo'ysundirgan Abulxayrxonga (1428-1468) qarshi kurashishiga to'g'ri keladi. Ko'chmanchilar har yili ayniqsa qish faslida Movarounnahrning ichkarisiga bostirib kirar va o'troq aholini g'orat qilib qaytardilar. Masalan, Abulxayrxon yetakchiligida ko'chmanchilar 1431- va 1435-yillari Xorazmgacha bostirib kirib, uning g'arbiy qismini Urganch bilan qo'shib zabt etadilar. Biroq Dashti Qipchoq ko'chmanchilari va Abulxayrxon bilan kurashish Ulug`bek bilan Shohruh uchtin yengil ko'chmaydi.

Ulug`bek va Abdullatif Movarounnahrni idora etishda, ayniqsa uning tashqi siyosatida Ulug`bek ayrim hollardagina mustaqil harakat qilgan bo'lsa-da, immo aslida u Shohruhning Movarounnahrda intizomli va toatkor noibi bo'lib qoladi. Tashqi va ichki siyosatga aloqador lar qanday masalani u otasi bilan maslahatlashib va kelishib, ming rozi-rizoligi bilafr hal etishga harakat qiladi. Vaqt-vaqti)ilan u Qirotga borib unga hisob berib, Movarounnahr xirojining >ir qismini uning xazinasiga jo'natib turishga, Shohruhning iarbiy yurishlari vaqtida unga ma'lum miqdorda askar, ot-ulov, oziq-ovqat va qurol-aslaha yuborishga majbur edi.

Shohruh 1447-yil 12-mart kuni nevarasi Sulton Muhammad jyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida olamdan o'tadi. Shohruh vafot etishi bilanoq Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash yana avjga minib, lamlakatni beqarorlik chulg`ab oladi. Odatga ko'ra taxtga Shohruhning to'ng`ich o'g`li Ulug`bek o'tirishi kerak edi. Ammo Boysunqurning o'g`illari Alouddavla bilan Abulqosim Bobur Ulug`bekka qarshi harakat boshlaydilar. O'zboshimcha Shahzodalarga qarshi Ulug`bek qo'shin bilan chiqishga va ular bilan muzokaralar olib borib kelishishga majbur bo'ladi. Chunki 1447-yilning bahorida Alouddavla Ulug`bekning katta o'g`li Abdullatifning qo'shinini tor-mor keltirib, uni asrga olgan va Qirotidagi Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'ygan edi. O'g`lining qurbon qilinishini istamagan Ulug`bek Alouddavla

bilan sulh tuzadi. Bitimga ko'ra Abdullatif ozod qilinib, Ulug'bek esa Qirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi. Biroq ko'p vaqt o'tmay Abdullatif bilan Alouddavla munosabatlari yana Iceskinlashib ketadi. 1448-yilning bahorida Ulug'bek va Abdullatifning 90 ming kishilik birlashgan qo'shini Qirotga yurish qiladi. Tarnob yaqinida bo'lgan jangda Alouddavla qo'shini tor-mor keltirilib, Qirot qo'lga kiritiladi. Bu g'alabadan so'ng Abdullatif, garchi bobosi Shohruhning Qirotidagi taxtiga o'tirishga muyassar bo'lsa-da, ammo unda otasiga nisbatan adovat paydo bo'ladi. Chunki g'alaba to'g'risida tevarak-atrofga yuborilgan fathnomalarda Abdullatifning nomi inisi Abdulazizdan keyin tilga olinadi. Uning Ixtiyoriddin qal'asidagi xazinasi Ulug'bek tomonidan olib qo'yilib, ma'lum darajada adolatsizlik va mehribonsizlikka yo'l qo'yilgan edi. Bu, shubhasiz, o'ta shuhratparast hamda mol-dunyoga o'ch Abdullatif uchun yetarli bahona bo'ladi. U otasining dushmanlari bilan yashirin tarzda til biriktirib, zimdan Ulug'bekka qarshi harakat boshlaydi. Awalambor Abdullatif Qirotida bor-yo'g'i o'n besh kun hokimlik qiladi. Abulqosim Bobur qo'shinining shaharga yaqinlashib kelayotganidan xabar topib, poytaxtni jangsiz bo'shatib, Movarounnahr tomon qochadi. Ulug'bek farmoni bilan Balxga noib qilib tayinlangach, viloyatda "tamg'a"m bekor qilib, savdo-garlarni o'z tarafiga og'dirib oladi. Otasidan norozi bo'lgan amir-larni atrofiga to'playdi. Qatto Abulqosim Bobur bilan bog'-lanib, uni birlashib Ulug'bekka qarshi kurashga undaydi. Shun-day qilib Abdullatif o'z otasiga qarshi ochiqdan-ochiq dush-manlik yo'liga o'tadi.

Ulug'bek fojiasi Davlatning yaxlitligini saqlab qolmoq uchun Ulug'bekda o'zining isyonkor va makkor o'g'liga qarshi yurish qilishdan boshqa iloj qolmaydi. Ammo ayni zamonda mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashib, Ulug'bekning ahvolini yanada mushkullashtiradi.

Qirotidan Samarqandga qaytar ekan Ulug'bek old tomondan Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining hujumiga duchor bo'ladi. Abulxayrxon boshchiligidagi ko'chmanchilar o'shanda Tashkent, Shohruhiya, Samarqand va

Buxoro tevarigidagi qishloqlarni talab, podshoh va yirik mansabdorlarning shahar atrofidagi chorbog`lari va ko`sliklarini vayron qiladilar. Ikki tarafdin kelgan dushmanlar bilan bo`lgan to`qnashuvlar oqibatida Ulug`bek qo`shini qattiq shikast topib, u ancha-muncha zaiflashib qoladi. Shu vaqtda Samarqandda vaqtinchalik noib qilib qoldirilgan Ulug`bekning kichik o`g`li Abdulazizga qarshi Samarqand amirlarining noroziligi kuchayib, Ulug`bek uni bartaraf qilishga majbur bo`ladi. Otasining qiyin ahvolda qolganini kuzatib turgan Abdullatif qulay mrsatdan foydalanib, bosh ko`taradi va Amudaryodan kechib o`tib, Termiz, Kesh va Xuzorni osongina zabt etadi. So`ngra Samarqandga qarab yo`l oladi. 1449-yil oktabrida Damashq qishlog`i yaqinida qattiq jang bo`ladi va bu jangda Ulug`bek yengiladi. Samarqand amiri Mironshoh Qavchin shahar darvozalarini berkittirib Ulug`bekni ichkariga kirishga qo`ymaydi. U Shohruhiyaga ham kirolmaydi va Abdullatifga taslim bo`lishga majbur bo`ladi. Shahar qozisi Shamsuddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramasdan, Abdullatif jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o`ldirilishini uyushtiradi. Zamonasining mashhur olimi va hukmdori Mirzo Ulug`bek 1449-yil 27-oktabrda 55 yoshida Samarqand yaqinida fojiali suratda shahid bo`ldi.

Shunday qilib, Ulug`bek Movarounnahrni qirq yil idora qildi. Bu davrda mamlakatning siyosiy hayotida keskin kurash davorn etganligiga qaramay bobosi Amir Temurdan farqli o`laroq, u shiddatli harbiy yurishlar uyushtirib, qo`shni mamlakatlarni fath etishga intilmadi. Aksincha, u o`z davlatini mustahkamlashga, mamlakat birtigini saqlab qolishga va madaniy hayotni ko`tarishga, rivojlantirishga harakat qildi, bu yo`lda o`zi bosh bo`ldi. Xilosa qilib aytganda Mirzo Ulug`bek hokimiyatni boshqarishda omadi kelmaydi.

II-bob. Mirzo Ulug`bekning ilmiy maktabi.

2.1. Mirzo Ulug`bekning qomusiy olim sifatida ilm-fan rivojiga qo`shgan bebaho hissasi.

Garchand Amir Temur qudratli saltanat barpo etib, uning hududlarini sharq g'arbga, shimolu janubga kengaytirib, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatlardan yuksaltirib dovrug'ini olamga mashhur qilgan bo'lsa-da, biroq uning vafotidan keyinmamlakat tanazzullikka uchrab bordi. Buning asosiy boisi avvalo shundaki, Amir Temurtasarrufiga kirgan ellar va yurtlar shu qadar xilma-xil, uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, ularni yagona bir markazdan turib uzoq vaqt boshqarish murakkab edi. Buning ustigaulardagi mavjud turli-tuman muholifatchi kuchlar ertami-kech o'z hududiy mustaqilligi uchun harakat etishlari tabiiy edi. Sohibqiron saltanatini zaiflashtirish va parchalanishga olib kelgan muhim sabablardan yana biri - ko'p sonli temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt talashib boshlanibketgan va bir necha yillarga cho'zilgan o'zaro besamar urushu nizolardir. Chunki, Amir Temur vafotidan so'ng uning ko'p sonli vorislari uning dono vasiyatlari, o'gitlariga quloqosmay, markaziy hokimiyatni egallash yo'lida jangu-jadalga kirishadilar. Amir Temur Xitoy yurishiga otlangan bir paytda O'trorda 1405 yil 18 fevraldakasallanib vafot etgan paytda uning 4 o'g'lidan 2 tasi (**Mironshoh** va **Shohruh Mirzolar**) va 19 ta nevara, 15 chevvara, shuningdek, qizlari - **Og'a begim**, **Sulton Baxt begim** va Og'a begimning o'g'li **Sulton Husayn Mirzolar** qolgan edi. Amir Temur vasiyatiga ko'ra uning o'rnini Qobul, Qandahar va Shimoliy Hind erlarini boshqarib turgan nabirasi **Pirmuhammad** (Jahongir Mirzo o'g'li) egallashi kerakedi. Biroq shahzoda Halil Sulton (Mironshoh o'g'li)ning o'zboshimchalik bilan Samarqandni egallab, o'zini hukmdor deb e'lon qilishi,

tabiiyki, boshqa shahzodalarning ham qo'zg'alishiga, saltanatning darz ketishiga olib keldi. Buning oqibatida tez orada g'arbiy hududlarning ancha qismi mustaqil bo'lib ajralib ketdi. Ozarbayjon tomonda turkmanlarning **Oq quyunli** va **Qora quyunli** sulolalarining Temur saltanatiga bo'ysunmaslik va unga qarshi qarshilik harakati kuchaydi. **Amir Xudaydod** va **Shayx Nuriddinlar** esa Movarounnahrning turli hududlarida bosh ko'tardilar¹. Faqat qat'iyatli, shijoatli Shohruh Mirzo bu qonli nizolar, urushlarga barham berib, Xuroson va Movarounnahrda hokimiyat jilovini qo'lga kiritadi. U 1409 yilda o'varounnahrdagi vaziyatni o'z foydasiga hal etib, uni katta o'g'li Ulug'bekka topshiradi. Bobosi Amir Temur unga katta mehr bilan qarabyoshligidan o'z tarbiyasiga olgan. Ulkan tug'ma iste'dod, aql-zakovat sohibi bo'lgan Ulug'bek (Sohibqiron xonadonida uni shunday nom bilan erkalashgan) davlatboshqaruvini puxta egallashdan tashqari diniy va dunyoviy bilimlarni ham etuk darajada o'zlashtirgan. Mirzo Ulug'bek hukmronligi (1409-1449) temuriylar saltanatining an'anaviy rivoji va muhim ijtimoiy o'zgarishlar yo'lidan ilgarilab berishida alohida davrni tashkil etadi. Negaki, bunda donishmand hukmdorning katta sa'y-harakatlari, to'g'ri yo'naltirilgan siyosati tufayli mamlakat daxlsizligi, tinchligi va osoyishtaligi nisbatan ta'minlandi. Bu esa uning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy ravnaqiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha davr tarixchilarining yakdil fikricha, Ulug'bek bobosi davridagi boshqaruv tizimini, barcha tartib-qoidalarni to'la saqlashga harakat qilgan. Soliq va moliya siyosatida ham bunga amal qilgan. To'g'ri, Ulug'bek Amir Temur singari jangu jadallarga qiziqmadi. Bu sohaga uning ortiqcha rag'batlari ham bo'lmagan. Faqat zaruriyat taqozo qilgandagina uharbiy yurishlarga otlangan.. Shu boisdan ham endilikda uning faoliyatida mamlakat obodonchiligi, yurt tinchligi, farovonligi, ilm-fan ravnaqiga oid masalalar asosiy o'rin egallaydi. Mamlakatda savdosotiq, hunarmandchilik va zirotchilik avvalgidek rivojlanishda davom etadi. Ko'plab sun'iy sug'orish inshootlari barpo etiladi. Mamlakat Buyuk ipak yo'li

¹ Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova."O'zbekiston tarixi" T:2006 yil.140 bet

orqali halqaro karvon savdosida faol ishtirok etadi. Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Shosh va boshqa shaharlarda ko'plab hashamatli madrasalar, masjidlar, maqbaralar, karvonsaroylar qad rostlaydi. Uning bevosita rahnamoligida qurilgan tenggi yo'q me'moriy inshoot - rasadxona o'sha davr ilm-fani va texnikasining eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etgan edi.

Ulug'bekning 1428 yilda o'tkazgan pul islohoti ham mamlakatda savdo-sotiq va pul muomalasini, moliya siyosatini yo'lga qo'yishda muhim voqea bo'lgan.

Ulug'bek muomalaga chiqargan yangi vazndagi tanga pullar o'z qadri, qimmatini bilan iqtisodiy hayotni jonlantirish, savdo-sotiqni rivojlantirishda alohida rol o'ynadi. Uning davrida ham yuqori tabaqa vakillariga, harbiy sarkardalar, oliy ruhoniylarga avvalgidek alohida imtiyozlar berish tartibi hukm surdi. Bundan tashqari davlatning katta ma'naviy tayanchi hisoblangan diniy muassasalar ixtiyorida ham ulkan miqyosdagi vaqf erlari to'plangan edi.

Temuriylar davrida aholi to'laydigan turli-tuman soliqlar orasida xiroj (er solig'i) alohida ajralib turardi. Dehqonlar etishtirgan hosilning kamida uchdan bir qismi xiroj solig'iga to'langan. Bundan tashqari ushr (daromadning o'ndan bir qismi), tamg'a (savdosotiq, hunarmand ahlidan olinadigan soliq), zakot, tutun solig'i, bog' solig'i, uloq (davlat xizmatidagilar uchun), dorug'ona (harbiy qo'riqchilar uchun), mirobona (suv etkazib beruvchilar uchun), yasoq (chorva mollari uchun), begor (davlat hisobiga ishlab berish: saroy qurilishi, ariq, kanallar qazish uchun) va boshqa soliq va majburiyatlar joriy etilgandi.

Ulug'bek o'z davlat siyosatida qanchalik oqil va izchil siyosat yuritishga, ilm-fan ahliga, din peshvolariga homiylik qilish, savdo-tijorat va hunarmand ahliga rag'bat ko'rsatishga harakat qilmasin, unga qarshi muxolifatchi kuchlar ham anchagina bor edi. Ulug'bek katta er egalari uchun oddiy fuqarolarga nisbatan

suiiste'molchiliklarini cheklash tadbirlarini ko'rganda, ular «taxtdagi olim»ga qarshi chiqdilar. Ruhoniylar orasidagi jaholatparast unsurlar Ulug'bekni islom diniga zarar keltiruvchi «betavfiq hukmdor» deb tashviqot yuritdilar. Shu tariqa,

jaholatparastlar ilmga, o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yyuchilar taraqqiyotga qarshi chiqdilar. Ulug'bek mamlakatdagi turli ijtimoiysiyosiy guruhlar o'rtasidagi ichki ziddiyatlarni, mutaassib, reaksiyon kuchlar muxolifatчилигинi oxirigacha bartaraf eta olmadi. Bu esa XV asrning 40-yillari oxirlariga kelib Movarounnahr davlatini beqarorlik va chuqur ijtimoiy larzalarga duchor etdi. Mamlakat qo'shinining jangovor holatda bo'lmaganligi va turli joylarga sochilganligi esa Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining bu erlarga tez-tez bostirib kelib, yurtni talashi uchun keng yo'l ochib bergandi. Xususan, 1447 yilda Shohruh Mirzo vafoti munosabati bilan Ulug'bekning ota taxtiga da'vogarlik qilib Xurosonga yurishi, jiyani Aloudovla va boshqa merosxo'rlar bilan hokimiyat talashishi, uning yo'qligida Abulxayrxon boshliq Dashti Qipchoqliklarning Movarounnahr erlarini g'orat qilishi va nihoyat, qora kuchlar ig'vosi tufayli o'z o'g'li Abdullatif bilan boshlangan nizoning katta jangga aylanib, unda Ulug'bekning mag'lub bo'lishi - bular nafaqat uning fojiali o'limi bilan yakun topib qolmay, ayni paytda Temuriylar sulolasi inqirozini yanada chuqurlashtirishga olib keldi. Ulug'bek akademiyasi tarqalib ketdi, kutubxonadagi kitoblar yondirildi, olimlar boshi oqqan tomonga ketishga majbur bo'ldi..

Ilm-fan ravnaqi Temuriylar ma'naviy madaniyati to'g'risida gap borganda, dastavval,ona yurtimizda Uyg'onishi davrining ikkinchi bosqichi bo'lgan bu oltin asrda ilm-fanning nechog'lik ravnaq topganligi hamda uning jahon ilmu urfoni taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi haqida har qancha g'ururlansak arziydi.

Mirzo Ulug'bek

qalamiga mansub

asarlar:

«Ziji Ko'ragoniy». Bu asarda 1018 ta yulduzning o'rni, holati aniqlangan. jahondagi 683 ta geografik joylarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatlari belgilangan.
«To'rt ulus tarixi»

Qozizoda Rumi

asarlari:

«Risola fil hisob» («Hisobga doir risola»)

«Sharhi Mulahhas fil-hay'yat» («Astronomiya asoslariga sharh»)

«Risolatul jayb» («Sinus haqida risola»)

Taftazoniyning «Miftahul-ulum» («Ilmlar kaliti») asariga sharh

G'iyosiddin

Jamshid asarlari:

«Suslam us-samo» («Osmon norvoni»)

«Risolat ul-atvor val-jayb» («Vatarlar va sinus haqida risola»)

Ulug'bek akademiyasi olimlari ijodidan namunalar

Ali Qushchi asarlari:

«Risola dor ilmi hisob»

«Risolai qusur»

«Risola dar handasa»

«Risola dar falakiyot»

«Risola dar ilmi hay'yat»

«Risolai mantiq»

Bu davrning yana bir muhim yutug'i-bu ijtimoiy fanlar, xususan, tarixshunoslik sohasida katta tadqiqotlarning yaratilganligidir. Bu xayrli ishlarning yuzaga chiqishida ham temuriy hukmdorlar tashabbusi va rahnamoligi beqiyos bo'lgan. Jumladan, Amir Temurning «Tuzuklari», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Bobur Mirzoning «Boburnoma»si ijtimoiy fanlar rivojiga ayricha ta'sir ko'rsatganligi shubhasizdir.

Temuriylar davrida salmoqli iz qoldirgan alloma olimlardan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Yazdiyning «Zafarnoma», Xofizu Abruning «Zubdat at-tavorix»,

Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla ul-sa'dain» va «Majma' ul-bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish o'rni va ikki azim daryoning quyilish joyi»), Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Mirxondning etti jildli «Ravzat ul-safo» («Poklik bog'i»), Xondamirning «Makorimul axloq» («Yaxshi fazilatlar»), «Xabibus siyar fi axboru afodul bashar» («Xabarlar va bashariyat odamlaridan dilga yaqin siyratlari») asarlari o'sha zamon tarixshunoslik ilmining yuksaklik darajasini o'zida ifoda etadi¹. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Eng muhimi, bu davr Amir Temurdek buyuk siymoni tarix maydoniga chiqardi. Bu zoti sharif va uning avlodlarining mislsiz sa'y-harakatlari, bunyodkorlik faoliyati tufayli

Movarounnahr va Xuroson

o'lkalari ulkan o'zgarishlarga yuz tutdi. Mo'g'ullarning bir yarim asrlik bosqini va zulmasoratidan butunlay xalos bo'lgan ona yurtimiz qudratli saltanat darajasiga ko'tarildi. Ayni chog'da u ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatlardan yuksalib, jahonga dovrug' taratdi. Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksak namunalari, duru javohirlari mana necha asrlardirki, jahon ahlini hayratga solib, minnatdor avlodlar ardog'ida e'zozlanib kelmoqda.

¹ Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova."O'zbekiston tarixi" T:2006 yil.144 bet

2.2. Ulug`bekning “To’rt ulus tarixi” asari tarixiy manba sifatida

Mirzo Ulugbek iki yirik asar yozib koldirdi. Bulardan biri «Zichi Jadidi Kuragoniy» bulib, klassik astronomiyani nazariy va amaliy masalalarini kamrab olgan ; Samarkand astronomlarining kup yillik ilmiy kuzatishlarini bayon etuvchi kapital asar xisoblanadi.

Ikkinchisi tarixiy asar mamlakatning ijtimoiy – siyosiy tarixi kiska tarzda bayon etilgan. Asar «Ulus – i arba’yi Chingiziy» (Chingiziylarning turt ulusi tarixi) yoki «Tarixiy– i arba ulus» (Turt ulus tarixi) nomi bilan mashxur. 1425 yilda yozib tomomlangan. «Tarix– i arba ulus» mukaddima va turt kismdan iborat.

Mukaddima O’rta asrlar tarixchilar urtasida xukm surgan an’anaga kura islomiyatdan avval utgan paygambarlar, turklarning afsonaviy ota – bobolari xisoblangan Yofas ibn Nux va uning farzandi Turkxon, shuningdek , Turk – mugul kabilalari va Chingizxon ta’rifi bayon kilingan.

Birinchi kism, Ulug yurt, ya’ni Muguliston va Shimoliy Xitoy tarixi: Ugadayxon (1227 – 1241) davridan to Arikbugunning avlodi Urdayxon zamonigacha yuz bergan voqealarni uz ichiga oladi. Ikkinchi kismda Jush ulusi, ya’ni Oltin Urda tarixi (Jujixon davridan to Shoxruxning zamondosh bulishi Muxammadxon zamonigacha; XIII – XIV asrlardagi tarixi talkin etilgan). Shuni xam aytish kerakki, muallif mazkur ulusda xukmronlik kilgan xar bir xukmdor (xon) ustida kiskacha va aloxida – aloxida tuxtalib, ularning davrida sodir bulgan voqealardan eng muximlarini bayon etgan.

«Tarix – i arbob ulus» ning ayrim kismlari, xususan uning turtinchi kismi kup jixatdan Sharafuddin Ali Yazdiyning «Mukaddimai Zafarnoma» siga uxshab ketadi, lekin «Tarix arbo ulus» bir muncha tula asar.

Bundan tashkari, unda turt ulus urtasidagi siyosiy munosabatlar «Uzbek» etnomining kelib chikish vakti xususida xam kimmatli ma’lumotlar

uchratamiz.

Kiskasi, «Tarix – i arba ulus» O'rta Osiyo va Kozogistonning XIII – XIV asrlardagi tarixini urganishda ayniksa, Chigatoy ulusi tarixini urganishda muxim manbadan biri vazifasini utashi mumkin.

Ko'rilayotgan davr ichida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Uzaro qirg'inbarot urushlar, tez-tez bo'lib turadigan chet el bosqinchilarining talon-torojlari ba'zida xalqning asrlar bo'yi yaralgan ma'naviy va moddiy madaniyati boyliklarini bir uyum xaroba va kulga aylantirar, faqat mo''jiza bilan saqlanib qolgan urug'largina madaniyatning yangi nihollarini etishtirardi. Xalqning fidoyi o'g'il-qizlari ularni sevib parvarishlar, shogirdlar va o'rinbosarlar tayyorlashar, o'zlaridan oldin o'tgan ajdodlarning an'analarini davom ettirar edilar. Temur o'limidan keyin ham shunday bo'ldi. Temurning ulkan feodal davlati qilich va qalqon itoatida edi. Xalq ommasi esa feodallarning jabr-zulmi ostida yashardi.

Temur vafotidan so'ng (5.02.1405 yil) hokimiyat uchun kurash boshlanadi va to'rt yildan so'ng Temurning o'g'li Shohruh bu kurashda g'olib chiqadi. U otasi idora qilgan hokimiyatni ikki kismga bo'ldi: markazi Qirotda bo'lgan, o'zi boshqargan Xuroson davlati va markazi Samarqandda bo'lgan, o'g'li Ulug'bek boshqargan Movarounnahr davlati.

Temurning nabirasi Shohruhning to'ng'ich o'g'li Ulug'bek 1394 yil 22 martda (796 yil) Sultoniya shahrida, Shohruhning 17 yashar xotini Gavharshodbegimdan tug'ildi. Gavharshodning otasi Chig'atoy zodagonlari vakili, Chingizxon hayotini saqlab qolgan Kishliqning o'g'li Giyosiddin Tarxon edi. Temur vafotidan so'ng Shohruhning xotini erining hukmronlik yillarida muhim rol o'ynadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa Muhammad Tarag'ay nomi berildi. Lekin hali Temur hayotligi davridayoq uni Ulug'bek deb atashardi.

1404 yil kuzida «Etti yillik» yurishdan qaytgan amir Temur o'z g'alabalariga qo'shib, 9 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan beshta nabirasining to'yini

xam qo'shib o'tkazdi. Ular safida o'n yoshli Ulug`bek xam bor edi. Uning qallig`i - amakisi Muhammad Sultonning (uning sharafiga Go`ri Amir maqbarasi qurilgan) qizi Og`abegim (yoki Og`abeka) edi, u ham keyinchalik Go`ri Amir xilxonalarining biriga dafn qilingan. Ulug`bek 15-16 yoshida, 1409 yilda otasi Shohruh tomonidan Movarounnahr hokimi etib tayinlandi. Ikki yildan keyin 1411 yili 17 yoshli Ulug`bek shimoli-g`arbiy Amudaryodan Sig`noqqacha, shimoli-sharqda esa Ashpara (Isfara) gacha bo`lgan ulkan muzofotning hukmdoriga aylandi. Qokimiyat jilovi Shohruh qo`lida bo`lsa-da, zamondoshlari Ulug`bekni itoatdagi shoh deb bilmasdilar.

Ulugbekning harbiy siyosati shu bilan ajralib turardiki, u doimo urush ochmas, zaruriyat tug`ilib qolganda, jangari qo'shnilar tomonidan xavf tug`ilganida urushga kirardi. Masalan, 1414 yilda Ulug`bek Farg`ona shahzodasi sulton Ahmadga qarshi muvaffaqiyatli urush olib bordi. Farg`ona, keyin Koshg`ar Movarounnahrqa qo'shib olindi.

Mo`g`ulistonning kuchayib borayotgan xonlari Ulug`bekka tahdid solib turishardi. Avvaliga Ulug`bek ularni itoatda tutdi, lekin tezda ular bo`ysunmasdan qo`ydilar.

Chunonchi, 1423 yilgi yurish vaqtida Ulug`bek Chu daryosiga etib keldi va 1425 yilning bahorida Ketmontepa jangida uning qo`shini Sher Muhammadxon ustidan g`olib chiqdi. Boshqa boyliklar qatori Ulug`bek ikki bo`lak nefrit - yashma toshni ham o`lja oldi. Ular shunchalik og`ir ediki, Samarqandga yuborish uchun maxsus yuk ko`targich qilishga to`g`ri keldi. Keyinchalik Ulug`bek hukmiga kura ulardan Temurga qabrtoshi tayyorlandi. 1425 yilgi zafarli yurish sharafiga Ulug`bek Ilon o`ti degan erdagi Jalol ota devonidagi tog` qoyasiga bitik bitishni buyurdi. Unda shunday so`zlar yozilgan: Ulug` tangrining... qo`llab-quvvatlashi birlan ulug`sulton, jamiy podshohlar hukmdori, tangrining erdagi soyasi, islom dinining tug`dori, din homiysi Mu`iniddin Ulug`bek ko`rag`on, tangri oning saltanatini poydor qilsun. Jete va Mo`g`ulistonga yurish vaqtida ushbu erdan o`tg`on. Qijriy, 828 yil. U bizning

davrimizgacha saqlanib qolgan. Boshqa siyosatga nisbatan ham ko'proq ichki siyosatda Ulug`bek o'zining bobosiga taassub qilardi. Agar Shohruhni musulmonlar shohi deb atashgan bo'lsa, Ulug`bek aksincha, ruhoniylar bilan unchalik chiqishmadi.

XV asr boshlarida tuzilgan, O'rta Osiyo darveshlarining tarixiga oid «Rashaxot aynul xayat» («XAYOT BULOGI TOMCHILARI») asarida darveshlarning Ulugbekka_ dushmanona munosabatda bo'lishiga doir misollar ko'p uchraydi. Qatto Buxoro darveshlarining boshlig'i, Abdurahmon Jomiyning ma'naviy padari Muhammad Porso ham dastavval ittifoqdosh bo'lsa-da, bora-bora shohning nazaridan chetda qoldi. Ulug`bek davrida O'rta Osiyo tarixini batafsil yozib chiqqan V[^]V. Bartold kuyidagi voqeani keltiradi Samarqandga Shamsiddin Muhammad ibn Muhammad al-Jazoiriy (2 dekabr' 1429 yil Sherozda vafot etgan) ruhoniylar ishlatayotgan hadislarning chin yoki soxtaligini tekshirish uchun keladi. U bilan bahsda ishtirok etish uchun Ulug`bek Muhammad Porsoni taklif etadi va kimning nomidan hadisni sharhlab berishini so'raydi. Sinov Shayxulislom Isomiddin va boshqa faqih va muhaddislar ishtirokida o'tkaziladi. Muhammad Porso tarafidan aytilgan bnr necha oyatlar ishtirok etuvchilar tomonidan shubha ostiga olinganda, Muhammad Porso Shayxulislom kutubxonasidan Shamsiddin ham e'tirof etgan kitoblardan birini keltirishni buyuradi. U hatto kitob qaysi javonda-yu, zarur hadis qaysi sahifada ekanini aytib beradi, holbuki u Shayxulislom kutubxonasida avvallari sira bo'lmagan edi. Muhammad Porso boshqa paytlar ham o'z ilmining bilimdoni ekanligini namoyish etgan edi.

Tarixiy adabiyotlarda Ulug`bekning Xoja Ahror bilan munosabati o'ta bahslidir. Xoja Ahror Samarqandga 22 yoshida, 1426 yili kelgan, Ulug`bek usha paytlari 32 yoshda edi. Demak, Xoja Ahror Ulug`bekdan 10 yosh kichik bo'lgan. Xoja Ahrorning «Ubaydullanoma» tarjimai hol kitobidan anglashiladiki, u oz fursat Ulug`bek madrasasida o'qigan, uning ma'ruzalarini tinglagan. Madrasani bitirgach, mudarris etib qoldirilgan. Xoja Ahrorning katta kuyovi Abdurahmon Nishopuriy uzining nodir «Musammos» («Muloqot») asarida aytib o'tadiki,

"bayram va ayyom kunlari Ulug`bek va Xoja Ahror o`rtasida madrasada tarix, falsafa, din asoslarining turli masalalari bo`yicha o`tkir bahslar bo`lgan. Bu bahslar olomon ko`z oldida o`tar va muallif ta`kidlashicha, Ulug`bek va Xoja Ahrorning qizg`in bahslari xususida guvohlik berardi. Ulug`bek shariat doirasida fanni o`rganish va bilim olishning afzalliklari haqida dadil fikrlar aytar, Xoja Ahror esa Islom qonunlarining asosiga amal qilishni talab qilar, fiqh va hadis oyatlaridan ma`ruzalar o`qirdi. Bu bahslarda boshqa olimlar, shoirlar mudarrislar, talabalar ham ishtirok etishardi. Lenin Xoja Ahror bilan Ulug`bekning ilmiy bahslari Ulug`bek o`limiga dindorlar sababchi, degan fikrga olib kelmasligi kerak. Ammo shuni ham aytib o`tish joizki, Ulug`bek feodal davlat hukmdori sifatida ateizm va ijtimoiy adolat printsiplariga amal qilish g`oyalaridan yiroq edi, u hamisha bobosi amir Temur kabi musulmon zodagonlarining tarafdori edi. Manbalarda yozilishicha, Ulug`bek davrida alohida imtiyozlardan taniqli shayxlar foydalanishgan. Xoja Qasan Attor, Nizomiddin Xomush (Xoja Ahrorning asosiy ustozlaridan biri), Shayx Yoqub, Charxiy sulton Ulug`bekning alohida ishonchiga sazovor edilar. Ulug`bek ham ruhoniylarsiz mamlakatni boshqara olmasligini tushunardi. So`fiylik va darveshlikning g`oyaviy markazi bo`lgan Buxoro madrasalari va xonaqohlari Ulug`bekning aloxida e`tiborida edi. U Buxoroning marhamatiga sazovor bo`lishga urinardi. Ulug`bek hokimligining ilk yillaridayoq Buxoroda Madrasa qurdira boshlagan va uni 1419 yili yakunlagan. Buxoro ziyoratida u mana shu binoda to`xtadi va talabalar hamda hurmatli zotlarga sovg`alar ulashib chiqdi.

Ulug`bekning Samarkand qurilishlarida ham diniy muassasalar alohida o`rin tutgan. Bu qurilishlar uchun bugungi «Registon» deb yuritiladigan bozor maydoni tanlab olingan. Abdurazzoq Samarqandiyning fikricha, Samarqand maydonida madrasalar qurilishi 820 (1417) yilda boshlangan bo`lib, 823 (1420) yilda tugallangan. V. V. Bartold bu ajoyib binoning me`mori noma`lum desa-da, uzbek olimlarining bu sohadagi izlanishlari muvaffaqiyatli tugadi. Bu madrasaning bosh me`mori Kozizoda Rumiyning shogirdi Kamoliddin

Muhandisligi aniqlandi. Bino ikki qavat va to'rt minoradan iborat bo'lib, bino burchaklaridagi bu minoralar bo'yi 38 metr ga etadi, hujralar 2 talaba uchun ikki qismga bo'lingan.

Buxoro va Samarqanddagi Ulug`bek qurdirgan madrasalar eng uzoq umr ko'rdi, XV asrda yaratilgan boshqa madrasalarning ko'plari vayron bo'lgan. O'rta Osiyoga 1842-1843 yillarda safar qilgan P. Xanikovning guvohlik berishicha, bu madrasalar binolari nurab turgan. V. L. Vyatkinning yozishicha, Samarqand madrasalari o'quv yurtlari sifatida 1927 yilgacha ishlab turgan. N. Xanikov Ulug`bekning Buxoro madrasasi 80 xonadan iborat ekanligini, talabalar oyiga o'rtacha 3,5 tilla pul olishlarini ezdi. Bino eshigida quyidagi bitik bor: «Utlibu-l-ilma farizatun li muslimuna va muslimatin» («ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzdir»). XVI-XIX asrlar tarixchilari Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Sayd Roqim, Rahmatullo Vozoh, Abu Tohir Xoja Samarqandiy va boshqalar Ulug`bek madrasalari faoliyati haqida yozganlar. O'rta Osiyolik bu tarixchilarning ma'lumotlaridan biz Ulug`bekning o'zi falakiyotshunoslik ilmidan toliblarga dars berganini bilib olamiz.

Afsuski, rasmiy tarixshunoslik Ulug`bekning ma'lumoti xususida aniq ma'lumotlarga ega emas. Ma'lumki, Ulug`bekning birinchi tarbiyachisi uning buvisi Saroymulkxonim edi. 1405-1411 yillarda u Amir Shoh Malik tarbiyasida bo'ldi. «Rashohat» dan Samarqanddagi madrasaning bosh quruvchisi amir Shoh Malik uning tarbiyachisi ekanini bilib olamiz.

1397-1398 yillarda Ulug`bek shoir va taniqli olim, bir turkum falsafiy-axloqiy asarlar muallifi shayx Orif Ozariy qulida Sadr qutbiddin madrasasida o'qidi. Orif Ozariy bir necha yil davomida Ulug`bekning tarbiyachisi bo'lgan. Temurning eron va Old Osiyo viloyatlariga qilgan 1399-1404 yilgi yurishlarida Ulug`bek Marogada (Ozarbayjon) Nasriddin Tusiy rasadxonasining xarobalarini ziyorat qildi. Aftidan uni falakiyotshunos Mavloni Ahmad bilan Temur xizmatida bo'lgan qozizoda Rumiylar kuzatib borgan. Shundan boshlab qozizoda Rumiylar shahzodaning doimiy ustoziga aylanadi.

Kozizoda Rumiyning shahzodaga bag'ishlangan «Matematika asoslari» kitobi shunga guvohlik beradi. Bu kitob talabalarga matematikadan asosiy qo'llanma sifatida XV-XIX asrlarda ham xizmat qildi.

O'rta Osiyo tarixshunoslarining yozishlaricha, Ulug'bek Madrasa mudarrisi bo'libgina qolmasdan, eng yaxshi muallimlarni tanlashda shaxsan katnashgan. Madrasaning birinchi domlasi faylasuf va fiqh ilmi bilimdoni Muhammad Xavofiy edi.

Madrasa ochilishi marosimida u birinchilardan bo'lib tinglovchilar huzurida ma'ruza o'qidi. Mashhur «Aflotuni zamon» Kozizoda Rumiyning madrasada tabiiy fanlar bo'yicha etakchi mudarris edi. Vosifiyning yozishicha, Madrasa qurilishi bitgandan so'ng Ulug'bekdan so'rashadi; «Kim madrasaning bosh mudarrisi (rektori) bo'ladi?» Ulug'bek bu odam barcha fanlar bo'yicha komil odam bo'lishi kerak, deb javob beradi. Ulug'bek so'zini eshitgan eski kiyimda, g'ishtlar orasida madrasa quruvchilari bilan o'tirgan Mavlono Muhammad bu vazifaga o'zining haqqi borligini aytadi. Mavlono Muhammad Madrasa qurilishida qora ishchi sifatida qatnashgan (Abu Tohir Xoja Samarqandiy). Ulug'bek u bilan suhbatlashib ko'rib tezda uning zukkoligiga amin bo'lgan. Shuning uchun Madrasa ochilishida unga mudarris sifatida birinchi bo'lib ma'ruza qilish huquqi berildi. Bu erda 90 dan ortiq olim ishtirok etgan bo'lsa-da, Muhammad Qavofiy ma'ruzasi mazmunini Ulug'bek va Kozizodagina anglab etganlar.

Ulug'bek maktabi tarixida etakchi rolni ulkan falakiyotshunos va riyozatchi (matematik) Giyosiddin Jamshid bin-Ma'sud Koshoniy o'ynadi. U Ulug'bek rasadxonasining etakchi olimlaridan va falakiyotshunoslik jihozlari haqida risola muallifi edi. Shuningdek, Ulug'bek va qozizodaning shogirdi va izdoshi samarqandlik Alouddin ibn Muhammad Kushchi «O'z zamonasining Ptolomeyi» edi. Nihoyat, Ulug'bek maktabi shogirdlaridan, uning asarlari sharhchisi, qozizoda Rumiyning nevarasi Mirim Chalabiy e'tiborni tortardi.

Ko'rinib turibdiki, Ulug'bek ma'lumoti jihatidan ustoz Kozizodadan o'zib ketdi va atrofiga o'z davrining eng ilg'or ziyolilarini tarixchilar,

adabiyotshunoslar, shoirlar, san'atshunoslar, tabiiy fanlar vakillarini to'plagan edi. Ular orasida matematik va falakiyotchilar faxrli o'rinni eg'allardi. Ulug`bekning rahbarligi va ishtirokida madrasada ilmiy ishlar muvaffaqiyatli rivojlandi.

Kuyidagi voqea madrasada tabiiy fanlar etakchilik qilishidan dalolat beradi: Xoja Ahror haqidag`i ma'lumotlarda yozilishicha, uning shogirdlaridan biri Abu Sayd Avbaxiy (Bartoldda- Ubaxiy), avval Ulug`bek madrasasida o`qib, kitob ilmidan ko`ngli qolgan. U Xoja Ahror bilan tanishgach, o`z o`rtoqlariga din ilmini o`rganish uchun eshon huzuriga borayotganini aytib, o`z buyumlari va kitoblarini ulashib chiqadi. «Tarixchi jahongir» kitobi muallifi Davlatshoh Samarqandiyning` yozishicha (XVI asr boshi), Ulug`bek madrasasida yuzdan ortiq talaba o`qigan. Bu Madrasa toliblari orasida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Qusayn Boyqaro, Mutribiy Samarqandiy, tarixchi Sayd Roqim va boshqa ko`plab mashhur bo`lgan kishilar bor edi. XVI asrda toliblar soni keskin ko`paydi. Shuning uchun mudarrislarining o`zi o`ndan ortiq edi, deb xabar beradi «Abdullanoma» muallifi. Bosh mudarris barcha Samarkand olimlarining boshlig`i hisoblanardi. XV asr o`rtalarida Abdurahmon Jomiy bosh mudarris edi.

Jamiyatning iqtisodiy tuzilishi, ya'ni bazisi siyosiy va huquqiy qurilishni aniqlaydi. Unga jamiyat a'zolarining g`oyaviy qarashlari ham mos keladi. Ulug`bek o`z davrining farzandi edi. Usha paytlarda O`rta Osiyoda hukmronlik qilayotgan dunyoqarash- hamma tabiat va jamiyat hodisalari Alloh irodasiga bog`liq, deb tushunilardi. Islomga qarshi chiqadigan har qanday qarash ta'qib ostiga olinar va jazolanardi.

Biz yuqorida O`rta Osiyo qomusiy olimi al Beruniyning geliotsentrik (quyosh-markazlik) qarashlarini keltirgandik. Shubhasiz, bu qarashlar Ulug`bek va uning maktabiga ayon edi. Lekin Beruniy juda ehtiyotkorlik bilan fikr yuritgandi. Bu ehtiyotkorlik Ulug`bek falakiyot maktabiga ham xos edi. Bu maktab xodimlari ilmiy ishlarining asosida geotsentrik (er-markazlik) g`oyasi bo`lsa-da, geliotsentrik qarash ham ularga yot emas edi. Masalan, Mirim Chalabiy yozadi: «Murakkab harakatni qiyoslasa bo`ladigan qulay nuqta olam markazi

sifatida Er emas. Lekin odatda uni shu markaz sifatida qabul qilishadi»-bu dunyoning geliotsentrik tuzilishiga ishora edi. Ulug`bek maktabi rasman geliotsentrik sistemaga amal qilgani davr talabi qonuniyatidan kelib chiqardi. Shuning uchun bu hol Ulug`bek asarlarining ahamiyatiga soya sololma`tdi, garchi ularda diniy bo`yoq bo`lsa-da. Shu bilan birga O`rta Osiyo tarixshunoslari Ulug`bekni birmuncha erkin fikrlovchilar qatoriga kiritishadi.

Musulmonlik nuqtai nazaridan Ulug`bek benuqson hukmdor emasdi, albatta. Lekin Bartold fikricha, o`z hukmini Alloh va uning payg`ambaridan ustun qo`yadigan zolim shoh ham emas edi. Bu o`rinda Xondamir yozib qoldirgan bir voqeani eslatib o`tamiz. Shohruhning poytaxti Qirotda taniqli mutasavvif shayx Kosim Anvar yashardi (1432 yilda vafot etgan). Ulug`bek esa uning muridi edi. U asli Ozarbayjondan. Yoshligida so`l xurufiyalar harakatiga yaqin bo`lgan. U Nuriddin Abdurahmon Jomiyning (1414-1492 yy.) ham ustozlaridan biri edi.

Abdurahmon Jomiy 1487 yilda yozgan umrnoma qasidasidan xulosa chiqarish mumkinki, u she`riyat, grammatika, mantiq, yunon va Sharq falsafasini, tabiiy fanlarni, matematikani, falakiyot ilmini va tarixni chuqur o`rgangan. «Tafakkur ko`zgusi» antalogiyasi muallifi Shihran Ludiy yozishicha, Jomiy bitgan 99 ta kitobning hammasi eron, Turkiya, Qindiston olimlari tomonidan ma`qullangan. Ular bu asarlardan hech biriga e`tiroz bildirmaganlar. Yuqorida zikr etilgan, Xondamir foydalangan qasidadan ko`rinadiki, Jomiy Samarqandda o`qiganida Ulug`bekni yaxshi eslab qolgan. Shuning uchun Jomiy ishonchli xabar berib aytadiki, o`zi tez-tez uchrashib turgan qosimi Anvarning«Tojdorlar islomdan yuz o`giranlar» degan fikrida jon borgan o`xshaydi.

XV asr O`rta Osiyo uchun ikki dunyoqarashning ayovsiz kurashi davri hisoblanadi. Ulardan birining vakili Temurning nabirasi, Amir Temur davlatining sobiq poytaxti Samarqandda qirq yil podsholik qilgan Mirzo Ulug`bek bo`lsa, ikkinchisining vakili esa uning yosh zamondoshi, Naqshbandiylardan bo`lgan darvesh Mirzo Ulug`bek vafotidan so`ng ikki yil o`tmayoq o`zining ulkan diniy ta`siridan foydalanib siyosiy hokimiyatni qo`lga olgan va Temurning haqiqiy yoki

uzoqroq avlodlari vositasida mamlakatni qariyb qirq yil boshqargan Xoja Ahror edi.» Bu fikrlarda mubolaga bor, albatta.

Ulug`bek olim va mutafakkir sifatida tanilgan davrga qaytamiz. Madrasada Ulug`bek saboq beradigan ilmlar orasida, yuqorida aytdik, falakiyot (astronomiya) alohida o`rin egallardi. Shu bois madrasa qurilgach, to`rt yil o`tib, rasadxona qurilishi boshlandi. Chunki 1259 yilda Nasriddin Tusiy tashabbusi bilan Marog`ada qurilgan so`nggi musulmon rasadxonasi ham XIV asrning birinchi yarmidayoq vayronaga aylangan edi.

Abu Tohir Xoja Samarqandiy «Samariya»da bu voqealarni quyidagicha bayon etadi: «Mirzo Ulug`bek Madrasa bunyod qilgach, to`rt yildan so`ng, qozizoda Rumi, mavlono g`iyosiddin Jamshid va mavlono Muiniddin Koshiy bilan maslahatlashib, Ko`hak quyisida, Obirahmat arig`i yoqasida hashamatli rasadxona binosini bunyod etdi. Bino atrofiga qaddi baland xujralar qurdirdi, rasadxona atrofida esa ajoyib bog` barpo etdiki, keyinchalik ko`p vaqtini shu bog`da o`tkazdi». Bobur ham bu haqda shunday yozadi: «Mirzo Ulug`bek Ko`hak etagida zijlar tuzish uchun uch qavatli juda baland rasadxona binosini bunyod etdi.»

2.3. Ulug`bek davri madaniyat tarixshunosligi

Mavlono Navoiy aytganidek, Ulug`bekning avlodlari unutilib ketdi. Ularni davrimizda kim ham eslayapti? Ulug`bek esa ilm-fanga intildi va ko`p narsaga erishdi.

Ulug`bek va uning safdoshlari ilmiy ishlarining muhim natijasi 1437 yilda asosan tugallangan «Ziji Ko`ragoniy», ya`ni «Yangi fazoviy jadvallar» dir. Ulug`bek hayotining so`nggi kunlariga qadar bu asar ustida ishlagan.

Asar mufassal kirish (nazariy) qism va jadvallardan iborat. Asarning birinchi qismi turli Sharq xalqlarining yilni hisoblashi tarixiga; ikkinchi qismi emaliy fazoshunoslik masalalariga, uchinchisi - sayyoralar nazariyasi bayoni va kichikroq to`rtinchi qismi esa falakiyotga bag`ishlangan.

«Yangi fazoviy jadvallar» yaratilishidan oldin birinchi bo`lib Gipparx yulduzlar jadvalini tuzgan edi. Unda 1022 yulduzning joylashgan o`rni berilgan bo`lib u, Ptolemeyning «Almajistiy» asarida berilgan. Bu jadvallar ilmiy jihatdan qimmatli bo`lib, samoviy jismlar harakatini o`rganish uchun ajoyib manba hisoblanadi.

Gipparxdan so`ng yulduzlarning to`la jadvalini tuzgan ikkinchi fazoshunos Ulug`bek edi. Uning jadvali ancha qimmatlidir, chunki, u yulduzlarning Samarkand rasadxonasida aniqlangan haqiqiy joylashuviga asosan tuzilgan. U 16 asr mobaynida tuzilgan ikkinchi jiddiy jadval edi. XV asrgacha

faqat ikki nafar fazoshunos - Gipparx va Ulug`bekning yulduzlar jadvali ahamiyatini to`liq angladilar.

Ulug`bek o`limidan so`ng rasadxona o`z faoliyatini tugatdi. Uning binosi va asbob-uskunalari vayron va talon-toroj qilindi. Olimlar esa Samarqanddan boshqa Sharq mamlakatlariga ketishga majbur bo`ldilar. Bino XV asrdan to XVII asr boshlarigacha qad tiklab turgan bo`lsa-da, u faoliyatsiz edi. Biroq «Ziji Ko`ragoniy» ustidagi ishlar asosan tugagan bo`lsa-da, Ulug`bekning izdosh shogirdlari, ayniqsa, Kozizoda Rumiyy vafotidan so`ng (1437) Ulugbekning yordamchisiga aylangan Ali Kushchi uni to 1449 yilgacha davom ettirdi. Buning sababi nima? Bu savolga javob ilgari ishlab chiqilgan Ulug`bek munajjimlik maktabining 30 yillik ilmiy dasturini amalga oshirilishi zaruriyati bilan bog`liq. Ulugbek shogirdi Ali qushchiga bu dasturni bajarish ustida ishni davom ettirishga ruxsat bergan edi. Aynan ana shu davrda Ali qushchining tashkilotchilik qobiliyati kuchli namoyon bo`ladi. Uning falakiyot va matematika sohasidagi ilmiy bilimlari keyinroq zamondoshlari tomonidan to`la tan olindi. Faqat ustozining bevaqt o`limi Ali qushchini Turkiyaga ketishga majbur qildi. Uning xizmati bilan «Ziji Ko`ragoniy» va boshqa ko`plab qimmatli qo`lyozmalar saqlanib qolingan. Ularning bir qismi yo`qolgan, boshqa qismi johil kuchlar tomonidan yo`q qilingan. qo`lyozmalarning ozroq qismigina jahon kutubxonalarida saqlanmoqda. Ali qushchining «Arifmetika bo`yicha risola» asari shular jumlasiga kiradi. U fors tilida bo`lib, London kutubxonasi va Uzbekistan jumhuriyati FA Sharqshunoslik ilmgohida saqlanmoqda. «Fazoshunoslik risolasi» ham shu ilmgohdadir. Bu asar 1975 yilda Toshkentda uzbek tilida nashr etilgan. Ali qushchi Istambulga kelgach, «Fazoshunoslik risolasi»ni- forsiydan arab tiliga o`girib, turk sultoni Muhammad II ga tortiq qiladi. Bundan tashqari, u hozirda Ayo Sofiya, Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanayotgan «Fatxiya» asarini ezdi. Ali qushchi 1474 yilda Isgambulda vafot etgan.

Ulug`bekning yulduzlar jadvali birinchi marta 1665 yili Oksfordda angliyalik T. Xayd, keyinchalik, 1767 yili G. Shakre, 1843 yili F. Bayl tomonidan

nashr etilgan. Frantsuz «sharqshunosi Sedillot T. Xayd nashrini qayta ko'chirib, Ulug'bekning kirish so'zini va jadvallarini frantsuz tiliga o'girdi hamda 1853 yili Parijda nashr qildi. Nihoyat, 1917 yilda «Ziji Ko'ragoniy» AKShda nashr etildi.

Bundan tashqari, Ulug'bek «Ziji» va Nasriddin Tusiyning jo'g'rofiy jadvallari 1652 yili Londonda birinchi bor nashr etilgan. Bu ma'lumotlar bizga «Mirzo Ulug'bek- asrlar qa'rini yorib o'tib kelayotgan nur» deyish imkoyini beradi.¹

G'arbiy Ovrupo olimlari XII asrga kelibgina Ulug'bekning ilmiy merosi xususida Sh. Grive (1648), T. Xayd (1665), Yan Gaveliy (1690) asarlari orqali xabardor bo'lishdi. Bu davrga kelib Samarkand rasadxonasi butunlay yo'q bo'lib ketgan edi.

Shunday qilib, XV asrda O'rta Osiyoda tarixiy ilmlar ham yaxshi rivojlandi. Bu erda Qofiz Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Isfizoriy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqa tarixchilar yashab, ijod qildilar. Ularning asarlari O'rta Osiyo tarixchiligining qimmatli manbalaridir. Masalan, Qofiz Abruning «Zubdat-ut-tavorix» («Ilnomalar qaymog'i») asarida 1427 yilgacha bo'lgan tarixiy voqealar bayon qilinadi. Abdurazzoq Samarqandiy (1482 yilda vafot etgan) esa «Matla-us-sa'dayn majma - ul bahrayn» («Ikki baxtli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi») asarida 1471 yilgacha bo'lgan voqealarni tasvirlaydi. Bu kitob xulagular avlodidan bo'lgan Abu Sayd tavalludidan to temuriylar sulolasi vakili Abu Saidgacha bo'lgan davrning (1304-1469 y.) tarixiy voqealarini o'z ichiga oladi. Mirxond (1498 yilda vafot etgan) «Ravzat-us-safo» («Tozalik bog'i») va uning nabirasi Xondamir «Qabib-us-siyor» asarlari Sulton Qusayn podsholigi davri tarixiga bag'ishlanadi. Isfizoriy 1491 yili Qirot tarixini ezdi. Davlatshoh Samarqandiy esa «Tazkirat ush-shuaro» asarini Alisher Navoiyga bag'ishladi. Bu asarda yuzdan ortiq shoirlar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlar jamlangan.

¹ i Abu Toqir Xoja. Samariya. V. A. Vyatkin tarjimasi. 1898 Yav.' 1899. 170-bet.

O'rta Osiyo xalqlarining XIV-XV asr tarixini o'rganish davomida rasadxona qoldiqlari, o'sha davrning Samarqand va Buxorodagi ajoyib me'morchilik yodgorliklari jahon jamoatchiligi e'tiborini o'ziga qaratib keldi va bu qiziqish tobora kuchaymoqda. V. L. Vyatkin, V. V. Bartold, T. N. Kori-Niyoziy va boshqalarning bevosita Ulug`bek davri tarixini o'rganish bo'yicha eng muhim asarlari, ishlari bilan tanishtirishni xohlardik.

Biz yuqorida Samarqand rasadxonasining o'rne, mavqei va ahamiyati xususidagi tarixiy manbalarni aytib o'tdik, 1908 yili V. L. Vyatkin XVII asr o'rtalariga mansub bir vaqf hujjatini o'rganayotganida hozirgacha Obirahmat arig`i va Naqshi Jahon degan joy nomlari bilan ma'lum bo'lgan «tole rasad» ning aniq chegaralariiii topdi. Qujjat rasadxonaning o'rne haqida shu qadar aniq va tushunarli ma'lumotlar berardiki, unda aytilgan tepalikni topish hech ham qiyin emasdi.» Ulug`bek rasadxonasidagi 1908-1909 yilgi qazish ishlari natijalari haqida V. L. Vyatkin O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy arxeologiya, lingvistika va etnografiya jihatdan o'rganish Rus qo'mitasida hisobot berdi.

1909 yilgi qazish ishlarining birinchi kunlarida V. L. Vyatkin bir g`isht qalinligida, balandligi ikki metr atrofida bo'lgan aylana devor va uchta parallel joylashgan, ikkita g`isht to'siq bilan ajratilgan, keskin pastga, binoning tashqi qatlamida qazilgak chuqurga tushadigan zinalarni topdi. Zinalarni tozalab, ocha borib arxeolog rasadxonaning asosiy falakiyotshunoslik uskunasi - ulkan kvadrantning bir qismini topdi. Keyingi tadqiqotlar rasadxona binosining diametri 48 metr bo'lgan aylana shaklida bo'lganini ko'rsatdi, meridian bo'yi radiusi esa 40,212 metr ekanligi aniqlandi.

V. L. Vyatkinning bu yutug`i shubhasiz, jahonshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Akademik Bartoldning aytishicha, Ulug`bek shaxsi hamda uning Samarqand rasadxonasi faoliyati mavzui sharqshunos sifatida e'tiborini tortdi. Bu qazish ishlari unga birinchi bo'lib «Ulug`bek va uning davri» asarini yozish imkonini berdi. Bu asar 1915 yil yozilib, 1918 yili e'lon qilindi. «Ulug`bek va

uning davri»ni «Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida» asarining davomi desak ham bo'ladi.

Bu asarning mazmuni nomiga qaraganda xronologik jihatdan ancha keng. V. V. Bartold dastlabki ikki bobda Chig'atoy davlati va Temur davlatining qisqa tavsifini keltiradi. Ulug'bekning bolalik va o'smirlik davri haqida ma'lumotlar kamligini e'tiborga olib, u bo'lajak O'rta Osiyo hukmdori va jahonga mashhur olim Ulug'bekning o'sha davrlar hayotiga oid deyarli barcha manbalarni o'rganib chiqadi. «Ulug'bek va uning davri»ning to'rtinchi va beshinchi boblari Movarounnahr hukmdorining ichki va tashqi siyosatiga bag'ishlangan. Va nihoyat, oltinchi bob Ulug'bekning shaxsiy hayoti va, ilmiy mashg'ulotlariga bag'ishlangan.

Bartold asaridagi eng yaxshi sahifalardan biri - Ulug'bek hayotining so'nggi yillaridan boshlab, 40 yil davomida O'rta Osiyo siyosiy hayoti markazida turgan «qishloqi shayx» ga ilk bor tavsif berilgan joy. Akademik Bartold Xoja Ahrorni xalq himoyachisi deb hisoblaydi. Bundan tashqari o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotining bir necha juda muhim tomonlari ham muallif e'tiboridan chetda qolgan. V. V. Bartold fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan, 1259 yilda qurilib Gozonxon nazaridan o'tkazilgan, 1300 yillarda ham ishlab turgan Nasriddin Tusiyning Marog'i rasadxonasi haqida hech narsa demaydi.

«Ulug'bek va uning davri» asari haqida V. V. Bartold «hali bor manbalardan to'laroq foydalanmadim, asar kamchiliklarini keyinroq qisman tuzatdim» deb yozgan bo'lsa-da, bu asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asardir. Bu davrning Bartold o'rganmagan tomonlarini boshqa tadqiqotchilar o'rganishdi. Jumladan ko'p vaqtlar Samarqand rasadxonasi tarixini tadqiq etgan V. P. Qeglov Ovrupo manbalariga asoslanib, «Ulug'bek jahon faniga ulkan hissa qo'shgan olim» mavzuida ilmiy asar yozadi. Keyingi yili M. E. Massonning «Ulug'bek rasadxonasi» risolasi nashr etildi, unda muallif O'rta Sharq fazoshunoslik fani taraqqiyoti haqida qiziqarli hikoya qiladi.

Ulug`bek va uning maktabi ilmiy merosini o`rganishda Ulug`bek boshliq samarqandlik olimlarning ilmiy dasturi haqidagi taxminni birinchi bo`lib ilgari surgan G. Jalolovning xizmati ham katta.

O`rta asrlarda O`rta Osiyo olimlarining falakiyot fani taraqqiyotiga qo`shgan hissalar ulkandir. Uzbek olimi T. N. Kori-Niyoziyning falakiyot ilmiga bag`ishlangan asarlarining uzbek va rus tillarida nashr etilganligi fikrimizga dalildir. T. N. Kori-Niyoziyning SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo`lgan «Ulug`bekning falakiyot maktabi» kitobi temuriylar davri tarixiga oid g`oyat qimmatli asardir. Undan o`quvchi V. L. Vyat`kinning 1914 yili qazish ishlarini boshlagani-yu, mablag` yo`qligi sababli ishning to`xtab qolganligini bilib oladi. 1941 yili Navoiy davrini o`rganish munosabati bilan Navoiy qo`mitasi (M. E. Masson, N. A. Suxarev) yana rasadxonada qazish ishlarini davom ettirdi. Biroq, Ulug` Vatan urushi boshlanib qolib, bu ishlar to`xtatildi. 1948 yilga kelibgina bu ish bilan tarix va arxeologiya ilmgohi V. A. Shishkin boshchiligida yana shug`ullana boshladi.

A. Navoiy tug`ilgan kunning 500 yilligi munosabati bilam 1941 yilning iyunida T. N. Kori-Niyoziy rahbarligida, temuriylarning Go`ri Amir maqbarasidagi qabrlarni o`rganish maqsadida, Samarqandga ekspeditsiya uyushtiriladi. Komissiya qabrni 1941 yilning 18 iyunida ochdi. Kori-Niyoziyning axborotiga qaraganda qabr toshida professor A. A. Semyonov o`qigan quyidagi yozuv bor ekan. «Bu nur taratuvchi qabr, bu sultoni shahidning sharaflı joyı, bu muattar bog`, jannatiy kishilarning, davlat-panohnıng so`nggi osoyishtaligi joyı, ilm-ma`rifat homiysi, tinchlik va din madadkori Sulton Ulug`bek (Alloh uning qabri-ni doimo yoritib tursin), 796 yilda Sultoniya da tavallud topdi, 810 yilning zulhıja oyida esa Madinatı salom - Samarqandda oliy hukmdor bo`ldi. Allahning irodasiga bo`ysunib, har bir banda o`ziga belgilangan muddat sari suzib boraveradi: Uning umrı nihoyasiga etganda, taqdir belgilagan muddat chegarasiga kelganda o`g`li unga nisbatan shafqatsizlik qildi - qilich tig`idan o`tkazdi, oqibatda u azobli o`lim

topib, hamma guyohlarini kechirguvchi egasining shafqatli dargohiga yo'l oldi. 853 hijriy yilining ramazon oyi, 10 kuni.»

Bu komissiya Ulug`bek o`limining hakikiy sababini ham aniqladi, Ulug`bek o`limining so`nggi daqiqalari haqida Abdullatif roziligi bilan Ulug`bekka hamroh bo`lib, Makkaga yo`l olgan Xoja Muhammad Xisravning ogzidan tarixchi Mirxond yozib olgan mufassal hikoyasi bor. Mirxondning yozishicha 1449 yilning oktabrida Ulug`bek bir necha mahramlari bilan Samarqanddan otda chiqib ketadi. Ular hali otlarini charchatib ulgurmasdanoq,- yozadi Mirxond,- ularni qandaydir chopar quvib etadi va Ulug`bekning uzoq safariga jihozlar hozirlash uchun qo`shni qishloqqa kirib o`tish haqidagi farmonni etkazadi. qishloqqa etib kelgach, Ulug`bek va hamrohlari xonadonlardan biriga joylashadilar. Sovuq oqshom edi. Shu erga etib kelguncha Ulug`bek quvnoq, har narsa to`g`risida suhbatlashib kelgandi. Biroq uning buyrug`i bilan navkarlar yoqqan olovdan bir uchqun sachrab Ulug`bekning to`niga yopishdi va kuydirdi. Ulug`bek unga qarab: «Sen ham bildingmi?» dedi. Ulug`bekning xayollari noxush tomonga o`zgardi. Xoja Muhammad Xisrav esa uni ovutishga urina boshladi. Shu payt uyga Abbos hamrohi bilan kirdi. Ulug`bek Abbosni ko`rib unga tashlandi va mushti bilan uning ko`kragiga urdi. Abbosning hamrohi Ulug`bekni ushlab qoldi va Abbos Ulug`bekning qo`lini ip bilan chandib, o`limi oldidan tavba qilishni bugordirdi. Barcha kuzatuvchilar burchak-burchakka tiqilib olishgandi. Abbos Ulug`bekni yonayotgan chiroq oldida cho`kka latdi-da, qilichni bir sermashda uni o`ldirdi. Xoja va navkarlar Samarqandga qaytishdi. Shunday qilib, Ulug`bek 1449 yilning 27 oktabrida 56 yoshida xoinona o`ldirildi. T. N. Kori-Niyoziyning guvohlik berishicha, haqiqatan ham Ulug`bek qabri ochib ko`rilganda uning boshi g`arb tomonga sal surilib, tepaga qaratib qo`yilgan bo`lib, uchta bo`yin umurtqasi bosh suyagidan uzilmagan holda edi. Oxirgi umurtqada o`tkir kesuvchi qurolning aniq izlari bor edi. Suyaklarning qo`l qismi bir necha qavat mato qoldiqlari bilan qoplangan edi. T. N. Kori-Niyoziy fikricha, bular yopilgan mato qoldiqlari. Bizningcha esa Ulugbekning kiyimlari qoldig`i. Xoja Muhammad Xisrav va

Ulug`bekka hamroh bo`lgan boshqa kishilar uning tanasini olishganmi, yo`qmi, u qachon va kim tomonidan dafn etilgan, kabi savollarga hali to`la javob yo`q. Davlatshohning so`zlariga qaraganda Ulug`bek «Siyob» («qora suv») bo`yicha 853 yil ramazon oyining 8 kunida (25 oktabr`) o`ldirilgan.

Abbos Ulug`bekni o`ldirgach, uzoq vaqtlardan beri temuriylar taxtini egallashga intilib yurgan Abdullatif taxtga da`vogar bo`lib qolishi mumkin bo`lgan ukasi Abdulazizni ham halok etdi. Abdullatifni ba`zi musulmon dindorlari vakillari va darveshlar jamiyatining rahbarlari qo`llab-quvvatlashdi. Biroq hokimiyat uchun o`zaro kurash va dindorlarning mamlakat hayotiga faol aralashuvi oxir-oqibatda fitnaga olib keldi. 1450 yilning 8 may - juma kunida Abdullatif fitna qurboni bo`ldi va taxtga temuriylarning boshqa biri Mirzo Abdulla o`tkazildi. U Ulug`bek hukmdorligi oxirida vafot etgan Isomiddinning o`g`li va vorisi edi. Bu shayx sulton Ulug`bekning tarafdori bo`lib, u 1434 yili Qirotga safarida Ulug`bekka hamroh ham bo`lgan edi. O`rta Osiyo tarixchiligi ma`lumotlariga qaraganda, Abdullatifning qattiqqo`l boshqaruvidan so`ng Abdulla davrida samarqandliklar uchun Ulugbek boshqargan davrdagi kabi biroz engil davrlar ham qaytdi. Shuning uchun ham akademik Bartoldning fikricha, aynan Abdulla davrida Ulug`bek tanasining qoldiqlari Go`ri Amirga o`tkazilgan va uning buyrug`i bilan yuqorida keltirilgan padarkush Abdullatifning nomi qoralab yodlangan qabrtosh so`zlari yozilgan. Komissiya hujjatlarining guvohlik berishicha, 1941 yilda Ulug`bek qabri ochilganda uning shahid sifatida, halok bo`lgan joyidagi kiyimida dafn etilgani ko`rilgan. Kori-Niyoziyning guvohlik berishicha uning boshi shamshirning bir zarbi bilan gavdadan uzilgan.

XV asrning 50-60-yillarida tarix, adabiyot va fanning turli sohalari rivoji ruhoniylar ta`siri va darveshlikning kuchayishi bilan almashti. Nafaqat Samarkand va Buxoro, balki butun O`rta Osiyo Sharqning iktisodiy va ilmiy markazi sifatidagi ahamiyatini yo`krta boshladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, Ulug`bek davridagi 40 yillik madaniy va ilmiy yuksalish, XV asr O`rta Osiyoning eng reaksiyona va zolim kishilaridan biri yirik feodal Xoja Ahrorning

qirg' yillik hukmronligi bilan almashindi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz:

1. Ulug'bek davrining yirik shayxlaridan Samarqandda Muhammad Porso (A. Jomiyning ma'naviy ustози), Buxoroda Qasan Attor, Badahshon va So'g'diyonada Yoqub Charxiy bor edi. Keyingi ikkovi Abu Sayd (1451-1469) va uning o'g'li Sulton Ahmad (1469-1494 y.) hukmdorligi davrida O'rta Osiyo madaniy hayotida katta urin tutgan Ubaydulloh Xoja Ahrorning ustozlari edilar.

2. Abdurahmon Jomiyning aytishicha, Xoja Ahrorning O'rta Osiyoning viloyatlarida 1300 tagacha, ba'zilar 3000 jarib erlari bor edi. Xoja Ahrorning faqatgina Samarkand viloyatidagi erlaridan xazinaga to'laydigan ushri (hosilning 0,1 foizi hajmida to'lanadigan soliq) 80 ming man, ya'ni, bir manga 20 kilogramm don hisoblasak, 1600 tonna bug'doyga teng edi. Bu 1300 er maydonidan har bir boshqaruvchi 10-30 ming botmon (200-800 tonna) don to'plardi, «Musammos» manbaida yozilishicha, bir kuni Xoja Ahrorning uyida barcha boshqaruvchilari hisob berishga yig'ilishgan. Ma'lum bo'ldiki, ular o'z qo'l ostidagilardan 10.000 mandan ko'p daromad yig'ishibdi. Xoja Ahrorga bo'ysunuvchi boylar Sharqiy Turkiston, Xuroson va Yahin Sharq mamla-katlari bilan savdo aloqalarini o'rnatishgan edi. Ba'zan undan moliyaviy yordam so'rab Movarounnahr hukmdorlari, hatto, Abu Sayd kabi yirik hukmdorlar ham murojaat etishardi. Abu Sayd din arboblari, ayniksa Xoja Ahror bilan mustahkam aloqa bog'lagan edi. Xoja Ahror ruhan kuchli shaxs bo'lib, o'z suhbatdoshi irodasini buka olar va boshqara bilardi. «Rashoxoti-aynul-hayot» muallifi Qusayn Voiz Koshifiyning o'g'li Ali Safiy shunday voqeani bayon etadi. Bir kuni Ali qushchi to'qqiz nafar shogirdlari hamrohligida Xoja Ahror huzuriga keldi. Xoja Ahror ularni ko'rib, «Ana it to'qqizta kuchukvachchani ergashtirib kelyapti», dedi. Shundan so'ng kitobda yozilishicha, Ali qushchi oldin Ozarbayjon, so'ng Istambulga ketishga majbur bo'ladi. U Samarqanddan o'zi bilan ko'plab qo'lyozmalar, jumladan Ulug'bekning fazoshunoslik jadvallariga «so'z boshi» sini ham olib ketadi.

Shunday qilib, Kori-Niyoziyning asari olimlarimizning urushdan keyingi davrdagi ilmiy yo'nalishlarini yakunlovchi ish sifatida jamoatchilik e'tiborini Qozondi.

Xulosa

«Tarix xotirasi, - deb yozadi I.A.Karimov, - halqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi.

Umuman, Mirzo Ulug'bekning bu asari unda ilmiy kuzatishlar asosida ishlab chiqib keltirilgan astronomik jadvallar o'zlarining ilmiy aniqliklari bir necha yuz yil davomida sharq g'arb olimlarini hayratga solib, astronomiya ilmida dasturulamal vazifasini o'tab keldi.

Sobiq Sovet davrida Mizro Ulug`bek va uning davri, uning astronomik ilmiy maktabi yuzasidan ma'lum kamchilik va cheklanganliklar bilan yozilgan.

Sharqshunos B.A.Bartoldning «Ulug`bek va uning zamonasi» (1918y) hamda akad. T.N.Qori-Niyoziyning «Ulug`bekning astronomiya maktabi» (1950) monografiyalari yaratildi. Lekin marhum akad. I.M.Mo'minov qayd qilib o'tganlaridek, O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha, Mirzo Ulug`bekning bu asari, uning astronomik maktabi, ilmiy merosi xaqida «biror jiddiy monografik asar» vujudga kelmadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hamma tabiatshunoslar singari Mirzo Ulug`bek ham o'z dunyoqarashiga ko'ra, moddiy dunyoning inson ongidan tashqari va mustaqil mavjudligini, tabiat hodisalarining va butun koinotning, shubhasiz, o'z qonunlari va qonuniyatlari asosida harakatlanishi va mavjudligini, shu bilan birga tabiat va jamiyat hodisalarining o'zaro aloqadorligi, ular haqidagi bilimlar kishilik jamiyatini rivojlantirish yo'lida xizmat qilish zarurligini tushunib yetgan donishmand mutafakkirdir.

Mirzo Ulug`bek va u asos solgan astronomik maktabning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarini chuqurroq o'rganish va tushunishga uning sodiq shogirdi Ali Qushchining qarashlari va astronomiyaga oid yozgan asarlari g'oyat qimmatli ahamiyatga ega.

Qiyin va murakkab, ziddiyatli sharoitda yashagan Ulug`bek mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda ilmiy ijod bilan shug`ullangan. Olimlarga rahbarlik qilgan.

O'z ustida tinmay ishlagan, ijod qilgan. Ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirgan. U o'z faoliyatida falsafa, tarix, mantiq, astronomiya, matematika, tabiatshunoslik va

huquq bilimlari bilan shug'ullanib asarlar yozgan. Yunon olimlaridan Aflotun, Arastu, Ptolomey asarlari bilan tanishgan. Ulug'bek o'tmish ajdodlardan, xususan, O'rta Osiyo olimlaridan qolgan madaniy meros, falsafiy qarashlardan o'z ijodida unumli foydalangan. Uning falsafasida aql-zakovatni jangu-jadallarga, yurt olish, boylik orttirishga emas, adolat bilan hukm surish, mamlakatni obod qilish, adabiyot, ilm-fanni rivojlantirish markaziy o'rinni egallaydi. Ulug'bek o'z atrofiga o'z davrining «Aflotuni» deb nom qozongan mashhur matematik, astronom Qozizoda Rumi va taniqli olimlar Ali Qushchi, Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Birjandiy, Miram Chalabiy, G'iyosiddin Jamshid, Muhammad ibn Umar Chag'niniy kabilarni to'plagan. Ulug'bek shu olimlar ishtirokida kengashlar o'tkazib matematika, astronomiya, geometriya fanlari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Obi rahmat soyi yoqasida rasadxona qurdirgan. Ko'rinib turibdiki, u tabiat muammolarini yechish bilan birga diniy e'tiqoddan voz kechmagan.

Uning falsafasida moddiylik va ma'naviylik mujassam edi. Ulug'bek 1437 yilda «Ziji Ko'ragoniy» risolasini yozib tugatgan. Uning asari hozirgacha olimlar qo'lidan tushmaydi. O'z rasadxonasida ijod qilib, 1018 ta yulduzning muvozanatini aniqlagan.

«Ziji Ko'ragoniy» asari nazariy-kirish qism va to'rtta katta bobdan iborat. Birinchi bobida muallif xitoylar, hindlar, greklar, eroniylar va boshqa xalqlarning kalendarlari bilan tanishib, o'z fikrlarini bildiradi. Ikkinchi bobda esa amaliy astronomiya, uchinchi bobda sayyoralar nazariyasi va to'rtinchi bobda astrologiya haqida o'z fikrlarini bildiradi. Uzoq yillar kuzatish va ilmiy tekshirishlar natijasida Ulug'bek fazodagi sir-asrorlarni ijod qilishda, yil, hafta va kecha-kunduzlarni belgilashda ulkan yutuqlarga erishadi.

O'zidan oldin o'tgan Erotosfen, Gipparx, Ptolomey, Batonniy, ibn Yunus, Nosiriddin Tusiy va boshqa astronomlarning bu sohadagi yutuqlarini orqada qoldirgan edi.

«Ziji Ko'ragoniy» asaridan tashqari, Ulug`bek, «Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola», «Risola-dar ilmu musiqa» asarlarini ham yozib qoldirgan. Ulug`bek ijodi dunyoviy falsafa bo'lib, jahon tabiatshunosligi, ijtimoiy fanlarini rivojlantirishda muhim hissadir.

Ulug`bek jahonda teleskopgacha bo'lgan astronomiyaning buyuk olimi, ko'p nazariy kashfiyotlar qilgan. Gap shundaki, ularning hammasi ilmiy kuzatishdan, ilmiy eksperimentdan boshlangan.

Kuzatish deganda, oddiy ko'z bilan yoki mikroskop va texnika bilan tabiiy yoki jamoa jarayonlarini ko'rib borish tushunilishi mumkin. Lekin, laboratoriya yoki observatoriya sharoitidagi kuzatish – bu eksperimentdir.

Ulug`bek Quyosh, planetalar, yulduzlarni o'zi qurdirgan Samarqand astronomiya observatoriyasidagi o'sha zamon ilmiy asboblari yordamida olib bordi. Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin al-Koshiy, Ali Qushchi va boshqa taniqli astronomlar hamda shogirdlar bu ishlarni tadrijiy ravishda bajardilar.

Ulug`bek ilmiy ijodining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ilmiy ishlarini voqealarni kuzatishdangina emas, balki oldin o'tgan olimlarning kuzatish natijalarini o'rganib ularni tanqid qilishdan boshladi. Bor kuzatuv xulosalarini to'qqa va puchga ajrata oldi. Uning yana bir xususiyati shuki, osmon jismlarini kuzatish uchun observatoriya qurish zarurligini payqab, uning konstruksiyasini fikran eksperiment yordamida aniqladi, osmon meridiani va quyosh ekliptikasi o'rinlarini aniqladi, koordinata sistemasi barcha elementlarini fikran va amalda o'rnatdi. Observatoriya ishga tushdi.

Kuzatish ob'ektlari – Quyosh, Oy, planetalar va yulduzlar, sub'ektlari Ulug`bek va boshqa kuzatuvchilar, kuzatish vositasi – sekstant. Ularning hammasi birgalikda kuzatish tizimini tashkil qildilar.

Ulug`bek kuzatishlari tabiiy hodisalarni odam tomonidan yaratilgan jahonda dastlabki mukammal sun'iy inshootlar orqali fandagi in'ikosidir.

Kuzatishdan boshlab nazariy mavqegacha yetmagan usulni goho empirik usul ham deb yuritildi. Uning ma'nosi shuki, nazariy jihatdan bayon etilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni eksperiment yordamida qonunlashtirish. Tajriba yo'li bilan aniqlanadigan voqealar. Ko'p faktorli hodisalarning me'yori bo'lgan optimal parametrlar bo'yicha bog'lanishlarni tajribaviy tadqiq qilish.

Empirik usul quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: a) bevosita, yuzaki ifodalash. Tarixiy voqealarni, hodisalarni, esdaliklarni dastlabki mantiqiy bayon etish. Botanika, arxeologiya moddiy faktlarini dastlabki o'rganish; b) grafik usul – sodda va oson.

Parametrlar orasidagi munosabatlarni yaqqol ko'rsatadi; v) ekstra– intrapolyatsiya usuli eksperiment yordamida hosil bo'lgan sonlar va raqamlarni qayta ishlaydi. Analitik va kelgusidagi voqealarni oldindan bilishda ishlatiladi. Ko'pincha eksperiment qilish imkoniyati yo'q hollarda ham ishlatiladi” .

Shunday qilib, Ulug`bek astronomik ilmiy maktabining erishgan tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari Ali Qushchidan keyin Markaziy Osiyodan tashqarida Xindiston, Eron, Turkiyada, G`arbiy Yevropada esa XVI asrdan boshlab davom ettiriladi va rivojlantiriladi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin 1994 yilda Prezidentimiz I.Karimov farmoni bilan Mirzo Ulug`bek tavaludining 600 yilligi o`tkazilib, mamlakatimizda va xorijda YuNESKO qarori asosida Parijda ilmiy konferensiyalar bo`lib o`tdi va shundan boshlab Mirzo Ulug`bekning tabiiy ilmiy va falsafiy qarashlarini haqiqiy ilmiy o`rganish boshlandi.

Mirzo Ulug`bek ilmiy kuzatishlar olib borish va madrasada falakkiyot ilmidan va`z aytish bilan birga madaniy-maishiy ishlarga ham jiddiy e`tibor bergan. O`nlab madrasa, xonaqoh, masjid, karvonsaroylar qurdirgan. Oldinroq boshlangan Bibixonim masjidi, Go`ri amir maqbarasi, Shohi zinda ansamblining qurilishini nihoyasiga yetkazgan. Ulug`bek haqida yuzlab asarlar mavjudki, ularda u donishmand faylasuf, adolatli sulton, ijodkor ustoz sifatida madh etiladi. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida «Ulug`bek madhiyasi» degan maxsus bob mavjud.

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda.

Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Ahloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda»¹. Prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimov aytgusidek buyuk ajdodlarimiz tarixini o`rganish, ular qoldirib ketgan buyuk tarixiy merosdan faxrlanish O`zbekistonda yashayotgan ahr bir fuqaroning burchidir. Bitiruv malakaviy ishida Ulug`bek davri madaniy tarixshunosligini o`rganar ekanmiz, buyuk bobomiz davlat arbobi, tarixchi, astronom olim Mirzo Ulug`bek tarixshunosligi tarixchi olimlar tomonidan atroflicha yoritilganligini ko`rishimiz mumkin. Mirzo Ulug`bekning o`zi tomonidan yaratilgan “To`rt ulus tarixi” asari bugungi kunda biz uchun buyuk bir tarixiy manba sifatida qancha qadirlasak arziydi. Bugun jahon hamjamiyati Mirzo Ulug`bek yaratib ketgan buyuk madaniyatini o`rganar ekan barcha millat vakillari olimlar bobomiz Mirzo Ulug`bekka uning salohiyatiga bilimiga tan bermay iloji yo`q.

¹ Karimov Islom. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida, xafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T. «O`zbekiston», 1997, 140-bet.

Shuning uchun ham Mirzo Ulug`bek jahon tarixida alohida o`ringa ega. Bunga o`sha davrda yaratilgan tarixiy manbalarda ham, bitiruv malakaviy ishini yoritish davomida o`rganilgan, sho`ro davrida yaratilgan asarlarda ham, mustaqillik davrida yaratilgan darslik va monografiya, maqola va ilmiy ishlarda ham ko`rishimiz mumkin. Bir so`z bilan aytganda bitiruv malakaviy ishi mavzusi doimiy dolzarb mavzu bo`lib qoladi. I. Karimov: “bizga bitiruvchilar emas, maktab ta`limi va tarbiyasini ko`rgan shaxslar kerak”¹, - deb takidlaydi.

“Eng muhimi inson va fuqaroning fikrlash va dunyoqarashi o`zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to`xtovsiz o`sib bormoqda”<sup>2</sup>, - deb ta`kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Men bitiruv malakaviy ishini yozish davomida shunga amin bo`ldimki bobolarimiz qoldirib ketgan buyuk merosni har vaqt, har qachon o`rganishimiz zarur va bu merosni oldin qanday bo`lsa shu holicha kelajak avlodga yetkazishimiz zarur deb xisoblayman va biz yoshlar Mirzo Ulug`bekdek inson bo`lishga mustaqil O`zbekistonimiz taraqqiyotiga hissa qo`shishga, Vatanimiz taraqqiyotining rivojlanishiga jahon hamjamiyatida o`z o`rniga egan bo`lishda har doim tayyor bo`lishimiz kerak deb hisoblaymiz.

¹ I.Karimov. “Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T. “Sharq”, 1997. 9 – bet.

² Barkamol avlod orzusi. T. Risqiyev tahriri ostida. T. “Sharq”, 1997, 43 – bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov Islom. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T. «O'zbekiston», 1997
2. I.Karimov. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T. "Sharq", 1997.
3. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq". 1998
4. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T."Ozbekiston" 1998
5. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", Toshkent "Ma'naviyat" 2008.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. "Sharq", 1997.
7. B.Ahmedov. Amir Temur. Tarixiy roman. T., 1995
8. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T., 1997
9. B.Ahmedov. Ulug'bek (Esse). T., 1989
10. A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar saltanati. Tarixiy ocherk. T., 1996
11. B.Shalotonin. Gorod na beregu Zarafshana. «Kizilkum», 1999
12. F.Qosimov. Temuriylar davrida Buxoro. Buxoro, 1996
13. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. T., «Cho'lpon» nashriyoti, 1993
14. T. S. Saidqulov "O'rta Osiyo tarixining tarixshunosligidan lavhalar", Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1993.
15. Axmedov B. Uzbekiston tarixi manbalari. (Kadimgi zamon va urta asrlar) T. «Ukituvchi» 2001 y.
16. Nizomiddin Shomiy. «Zafarnoma» T. 1996 y.
17. Barkamol avlod orzusi. T. Risqiyev tahriri ostida. T. "Sharq", 1997,
18. Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova."O'zbekiston tarixi" T:2006 yil.